

TDIU HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI



O'QUV USLUBIY
MAJMUA



TOSHKENT- 2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY-METODIK
MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI**

**XORIJIY MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI VA
MAMLAKATSHUNOSLIK (MAMLAKATLAR VA
MINTAQALAR BO'YICHA)
yo'nalishi**

**«JAHON IQTISODIYOTINING
GLOBALLASHUVI»
moduli bo'yicha**

**O' Q U V – U S L U B I Y
M A J M U A**

Toshkent-2023

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: Vaxabov A.V. – O'zMU, “Makroiqtisodiyot” kafedrasi mudiri, professor, iqtisodiyot fanlari doktori
Ismailova N.S. – TDIU, “Jahon iqtisodiyoti” kafedrasi mudiri, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi;

Taqrizchi: Zokirova S.A. – JIDU, “Xalqaro iqtisodiy munosabatlar” kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi

Modulning ishchi dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2022 yil 23 dekabragi 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I. Ishchi dastur.....	4
II. Modulni o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lif metodlari.....	12
III. Ma'ruza matnlari.....	19
IV. Amaliy mashg'ulot materiallari	51
V. Keyslar banki.....	56
VI. Mustaqil ta'lif mavzulari.....	58
VII. Glossariy.....	61
VIII. Adabiyotlar ro'yxati.....	76

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son, 2019 yil 27 avgustdagи “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-tonli Farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 797-tonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiyligi malaka talablari va o'quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarini joriy etish, maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarining mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Kursning maqsadi va vazifalari

Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining maqsadi pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga

joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

“Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik” yo’nalishida pedagog kadrlarning zamonaviy kasbiy bilim, ko’nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

mutaxassislik fanlarini o’qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta’minlash;

maxsus fanlar sohasidagi o’qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg’or xorijiy tajribalarini o’zlashtirish;

“Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik” yo’nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o’zaro integratsiyasini ta’minlash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko’nikma va malakalari hamda kompetentsiyalariga qo’yiladigan talablar:

“Kredit modul tizimi va o’quv jarayonini tashkil etish”, “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish” hamda “Maxsus maqsadlarga yo’naltirilgan ingliz tili” modullari bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar tegishli ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari bilan belgilanadi.

Mutaxassislik fanlar bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetentsiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra tasnifini;

jahon mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish darajasini;

agrар industrial va postindustrial mamlakatlarni;

yangi industrial mamlakatlar iqtisodiyotini;

jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida O’zbekistonning innovatsion faoliyatini;

xalqaro moliya va uning jahon bozori globallashuvidanagi ahamiyatini;

xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari va ularni tashkil etish va rivojlantirish bosqichlarini;

iqtisodiy integratsiya mamlakatlararo yagona umumiy xo'jalikning shakllanish jarayonini;

rivojlangan mamlakatlarning integratsion birlashmalarini;
investitsion faoliyatni tartibga solishda davlatning rolini;
davlat investitsiya siyosatining mohiyati, tartibga solish yo'nalishlari va tamoyillarini bilishi kerak.

Tinglovchi:

xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra tasniflash;

postindustrial mamlakatlarning guruhanishini baholash;

postindustrial mamlakatlarda inson kapitalining rivojlanish va aholi turmush sifatini tadqiq qilish;

Osiyo va Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlar iqtisodiy salohiyatini taqqoslash;

jahon iqtisodiyotining globallashuvi va raqobat muhitini kuchayib borishi rolini tahlil qilish;

jahon bozorida mahsulotlar hayotiylik davrini keskin qisqarishini tahlil qilish;

bozor kon'yunkturasi va iste'molchilar ehtiyojlarini tez o'zgarishini baholash;

G'arbiy Evropa integratsiyasining rivojlanish bosqichlarini tadqiq qilish;

Tinch okeani hamkorligi tashkilotining tashkil topishini asoslash;

xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarini tashkil etish va rivojlantirish;

xalqaro valyuta fondi, xalqaro taraqqiyot va rivojlanish banki ma'lumotlarini tahlil qilish;

davlat investitsion siyosatini faollashtirish;

O'zbekistonda hududiy investitsiya siyosatini tashkil etish;

investitsion muhitga ta'sir etuvchi omillar va investitsion jozibadorlikni baholash tartiblari kabi ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

jahon mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish darajasini aniqlash;

Postindustrial mamlakatlar iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi tahlil qilish;

yangi industrial mamlakatlar rivojlanishidagi umumiyy va o'ziga xos jihatlarni tahlil qilish;

jahon bozorida mahsulotlar hayotiylik davrini keskin qisqarishi, bozor kon'yunkturasi va iste'molchilar ehtiyojlarini tez o'zgarish sabablarin baholash;

tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv, iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti hamda xalqaro moliyaviy korporatsiyalar o'rtaсидаги integratsiya jarayonlarini tushunish;

Sharqiy Evropada integratsiya jarayonlari va integratsion guruxlarni aniqlash;

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari doirasidagi integratsion jarayonlarni baholash;

O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan tartibga solish;

innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishga oid malakalariga ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti iqtisodiy munosabatlari sohasiga oid ilmiy seminarlarni o'tkazish va maslahatlarni berish;

O'zbekistonning yangi industrial mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy xamkorligining rivojlanish istiqbollari tahlil qilish;

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini modernizatsiyalash hamda diversifikatsiyalash faoliyatni baholash, samaradorligini tahlil qilish;

rivojlangan mamlakatlarning integratsion birlashmalarini qiyosiy baholash va ularga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish;

investitsion loyihalarni iqtisodiy baholash kabi kompetentsiyalarga ega bo'lishi zarur.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Jahon iqtisodiyotining globallashuvi” modulini o'qitish jarayonida quyidagi innovatsion ta'lim shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida interfaol ma'ruzalarni tashkil etish;

- virtual amaliy mashg'ulotlar jarayonida keys, loyiha va assisment texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Jahon iqtisodiyotining globallashuvi” moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi “Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti” hamda “Xalqaro iqtisodiy integratsiya” o'quv modullari bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar zamonaviy va innovatsion horijiy ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish, joriy etish va amaliyotda qo'llashga doir proaktiv, kreativ va texnologik kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Auditoriya o'quv yuklamasi			
		jami	jumladan		
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot
1	Jahon iqtisodiyotining globallashuvi mohiyati, rivojlanish omillari va shakllari	4	2	2	
2	Jahon xo'jaligining globallashuvi bosqichlari va rivojlanish tendentsiyalari	6	2	4	
3	Jahon iqtisodiyotining globallashuvi muammolari va ularning guruhlanishi	8	2	4	2
4	Jahon iqtisodiyotining globallashuvi muammolari va ularni hal etish yo'llari	8	2	4	2
	Jami:	26	8	14	4

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi mohiyati, rivojlanish omillari va shakllari

Globallashuv jarayonining mazmuni. Globallashuvga bag'ishlangan ilmiy qarashlarning vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari va yo'nalishlari. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi nazariyalarining transformatsiyalashuvi va xususiyatlari. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi omillari, shart-sharoitlari va turlari.

2-mavzu. Jahon xo'jaligining globallashuvi bosqichlari va rivojlanish tendentsiyalari

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va rivojlanish bosqichlari. Jahon iqtisodiyoti globallashuvini harakatlantiruvchi kuchlari. Jahon iqtisodiyotining erkinlashuv jarayonining kuchayishi. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi mexanizmi. Jahon iqtisodiyotiga yangi rivojlanayotgan yirik shaharlar ta'sirining kuchayishi. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining belgilari. Xalqaro iqtisodiy va moliya tashkilotlarining jahon iqtisodiyotini global tartibga solishdagi o'rni. Globallashuv jarayonlarining rivojlanish yo'nalishlari.

3-mavzu. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi muammolari va ularning guruhanishi

Global muammolarning belgilari. Global muammolarning guruhanishi. Global iqtisodiy muammolar: jahon iqtisodiyotining transmilliyashuvi, iqtisodiy, savdo urushlari va nizolari, rivojlanayotgan mamlakatlar qoloqligining kuchayishi; Shimol-Janub muammosi. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining tsiklliligi tarixi va rivojlanish bosqichlari. Globallashuvning tsiklik rivojlanish qonuniyatları. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining qarama-qarshiliklari.

4-mavzu. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi muammolari va ularni hal etish yo'llari

Globallashuvning afzalliklari. Globallashuvning oqibatlari. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va turli xavf-xatarlarning vujudga kelishi. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining afzalliklari samarasi bilan globallashuvning hozirgi modeli o'rtasidagi ziddiyatning keskinlashuvi. Global qo'shilgan qiymat zanjirlarining uzilishi va jahon iqtisodiyoti krizisining chuqurlashuvi. COVID-19 pandemiyasi va jahon iqtisodiyoti krizisining rivojlanishi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi mohiyati, rivojlanish omillari va shakllari

Muhokama etiladigan masalalar:

1. Globallashuv jarayonining mazmuni.
2. Globallashuv nazariyalarining rivojlanish bosqichlari va uning xususiyatlari.
3. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi omillari, shart-sharoitlari va turlari.

Kalit so'zlar: jahon iqtisodiyoti, globallashuv, baynalmilallahuv, global bozor, ochiq iqtisodiyot.

2-amaliy mashg'ulot.

Jahon xo'jaligining globallashuvi bosqichlari va rivojlanish tendentsiyalari

Muhokama etiladigan masalalar:

1. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining rivojlanshi.
2. Jahon iqtisodiyotining globallashuvini harakatlantiruvchi kuchlari va belgilari.
3. Globallashuv jarayonlarining rivojlanish bosqichlari.

Kalit so'zlar: transmilliy kompaniyalar, global hamkorlik, kapital bozori, iqtisodiy baynalmilallahuv.

3-amaliy mashg'ulot.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi muammolari va ularning guruhlanishi

Muhokama etiladigan masalalar:

1. Globallashuv muammolarining guruhlanishi.
2. Global iqtisodiy muammolar.
3. Globallashuvning tsiklik rivojlanish qonuniyatlari.

Kalit so'zlar: integratsiya, iqtisodiy integratsiyalashuv, investitsiya siyosati.

4-amaliy mashg'ulot.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi muammolari va ularni hal etish yo'llari

Muhokama etiladigan masalalar:

1. Globallashuv afzalliliklari.
2. Globallashuv oqibatlari.
3. Global qo'shilgan qiymat zanjirining uzilishi va jahon iqtisodiyoti krizisining chuqurlashuvi.

Kalit so'zlar: global qo'shilgan qiymat zanjiri, jahon iqtisodiyoti krizisi.

KO'CHMA MASHG'ULOT

Mazkur modul bo'yicha o'quv rejada "Jahon iqtisodiyotining globallashuvi muammolari va ularning guruhlanishi" hamda "Jahon iqtisodiyotining globallashuvi muammolari va ularni hal etish yo'llari" mavzularida 4 soat ko'chma mashg'ulot rejorashtirilgan.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modulning nazariy materialini o'zlashtirishda quyidagi o'qitish shakllaridan foydalilanildi:

davra suhbatlari (ko'rيلayotgan loyiha echimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

bahs va munozaralar (loyihalar echimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar echimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

Keng ko'lamli suhbat. Hamma uchun umumiy bo'lgan tavsiya etilayotgan majburiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan mashg'ulotning har bir reja savollariga

tinglovchilarni tayyorgarligini nazarda tutadi. Faollashtirishni barcha vositalarini qo'llash bilan: so'zga chiquvchiga va barcha guruhga yaxshi o'ylab tuzilgan aniq ifodalangan savollar; so'zga chiquvchi tinglovchilarni kuchli va kuchsiz tomonlariga diqqatlarini qarata olishi; ish jarayonida ohib berilayotgan, yangi qirralarni o'sha vaqtning o'zida ajratib ko'rsatish va boshqalar asosida ko'pchilik tinglovchilarning savollarini muhokama qilishga jalb qilish imkonini beradi.

Press-konferentsiya. Qisqa so'zga chiqishdan so'ng, birinchi savol bo'yicha ma'ruezachiga (agarda ma'ruzalar bir qator tinglovchilarga berilgan bo'lsa, o'qituvchining o'zi ulardan biriga so'z beradi) so'z beriladi. Shundan so'ng, har bir tinglovchi ma'ruza mavzusi bo'yicha unga savol berishi lozim.

Keyslarni (muammoli vaziyatlarni) echish. Muammoli vaziyatlarni hal etish natijasida hosil bo'lган, mustaqil izlab topilgan dalillar, kasbiy ahamiyatli yo'naliishlarni izlashga va tasdiqlashga, kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan bog'liqligini anglab etishga yordam beradi.

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.

Muammoni jamoali tarzda hal etishning usullari va vositalari

Muzokaralar

Muzokaralar – aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlarining almashinushi.

Muzokalarni o'tkazish jarayonining tuzilishi

Олиб борувчининг кириш сўзи, кўрилаётган масала билан аудиторияни таништириш, регламентни тасдиқлаш, иштирокчиларни таништириш



Bahs

Bahs – o'z fikrini ifoda etishni xohlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

Anjuman-bahsining roli

Olib boruvchi – o'rgatuvchi barcha vakolatlariga ega – bahs borishini boshqaradi, isbotlar va rad etishlarning daliligini, tushuncha va atamalarning aniqligiga e'tibor qaratadi, muloqotning barcha qoidalarga munosib tarzda o'tishini kuzatadi.

Opponent – tadqiqotchilar muhitida qabul qilingan opponentlik jarayonini amalga oshiradi. U nafaqat nutq so’zlovchining asosiy nuqtai nazarini ifodalashi, balki uni tushinishi orqali uning xatolarini topishi va hal etishning o’z variantini taqdim etishi zarur.

Mantiqchi – nutq so’zlovchi va opponent fiklaridagi qarama-qarshiliklarni va mantiqiy xatolarni aniqlaydi, tushunchalar tavsifini aniqlaydi, dalillar va rad etishlarni va farazni oldinga surish haqqoniyligini tahlil qiladi.

Psixolog – mahsulli muloqotni tashkil etish uchun javob beradi, birgalikda harakatlarni amalga oshirib, kelishuvga erishadi, bahsning mojaroga aylanishiga yo’l qo’ymaydi.

Ekspert – bahs usulining natijaviyligini baholaydi, oldinga surilgan farazlar va takliflar, hulosalar haqqoniyligini baholaydi, aniq bir ishtirokchining qo’shgan hissasi to’g’risida fikrlarni bildiradi va boshqalar.

«Aqliy hujum»

Aqliy hujum (breystorming – miyalar bo’roni) – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish fikrlarni jamoali generatsiya qilish usuli.

Aqliy hujum vaqtida ishtirokchilar murakkab muammoni birgalikda hal etishga intilishadi: ularni hal etish bo’yicha o’z fikrlarini bildiradi (generatsiya qiladi) va bu fikrlar tanqid qilinmasdan ular orasidan eng muvofiqi, samaralisi, maqbuli va shu kabi fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.


Aqliy hujumning asosiy vazifasi – o’qib-o’rganish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tushunish va hal etishga motivlashtirishni rivojlantirish, muloqot madaniyati, kommunikativ ko’nikmalarni shakllantirish, fikrlash inertsiyasidan qutilish va ijodiy masalani hal etishda fikrlashning oddiy borishini engish.


To’g’ridan-to’g’ri jamoali aqliy hujum – iloji boricha ko’proq fikrlar yig’ilishini ta’minlaydi. Butun o’quv guruhi (20 kishidan ortiq bo’lmagan) bitta muammoni hal etadi.

Ommaviy aqliy hujum – mikro guruhlarga bo’lingan va katta auditoriyada fikrlar generatsiyasi samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.


Har bir guruh ichida umumiy muammoning bir jihatni hal etiladi.

Ko’rgazmali taqdim etish: grafik tashkil etuvchilar





Venn diagrammasi



Тоифали жадвал

Тоифа – мавжуд ҳолат ва муносабатларни акс эттирадиган белги (умумий).

- ажратилган белгиларга кўра олинган маълумотларни
бираштиришига тоз мумкин.

Тоифали шарҳни тузиш қоидалари билан танишилади. Ақлий ҳужумдан сўнг (кластерга ажратиш) мини гуруҳларда янги ўқув материали билан танишилади ва олинган маълумотлар фрагментларини бирлаштиришга имкон берадиган

Тоифалар жадвал кўринишида расмийлаштирилади. Фоя маълумотлар жадвалида тегишли тоифалар бўйича тақсимланади. Иш жараёнида маълум бир тоифалар номлари ўзгаририлиши мумкин.


Ишнинг натижавий тақдимоти

SWOT – tahlil nomlanishi inglizcha bosh harflardan olingan:
Strengths – kuchli tomoni, korxonada ichki resurslar mavjudligi nazarda tutiladi;

Weakness – kuchsiz tomoni yoki ichki muammolar mavjudligi;
 Opportunities – imkoniyatlar; korxona rivojlanishi uchun mavjud imkoniyatlar;
 Threats – xavflar; tashqi muhitdagi mavjud xavf-xatarlar

Qoidaga ko’ra, SWOT – tahlilining muvaffaqiyati tashkilotga bog’liq bo’lmay, balki kelgusidagi strategik maqsad va loyihalarni ishlab chiqishda uning natiasi hisobga olinishiga bog’liq bo’ladi. Uni qo’llashda elementlarini quydagicha talqin qilish mumkin:

“Kuchlar tahlili” grafigi



«Kuchlar tahlili» grafigini tuzish qoidasi

Koordinat o’qi chiziladi, chapga strelka (kuchlar) bilan korxona rivojlanishi yoki muayyan biznes loyihasini amalga oshirishga xalaqit beruvchi to’siqlar joylashtiriladi. Ushbu strelkalar kattaligi jihatdan u yoki bu muammoga ta’siri hamda jiddiyligiga mos kelishi lozim bo’ladi.

So’ngra qarama-qarshi tomonga ushbu kuchlarni engib o’tish vositalari strelka ko’rinishida eks ettiriladi. Ularning soni grafikning o’ng tomonidan natija chiqara oladigan darajada bo’lishi lozim.

Umuman olganda, bu kelgusida aniqlashtirishni va bo’laklarga ajratishni talab etadigan kuchlarni nisbiy baholash usuli hisoblanadi.

“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so’z bo’lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o’rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o’rganish, tahlil qilish asosida o’qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o’rganishda foydalanish tartibida qo’llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o’z ichiga quydagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	yakka tartibdagi audio-vizual ish; keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); axborotni umumlashtirish; axborot tahlili; muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	individual va guruhda ishlash; muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	individual va guruhda ishlash; muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish; har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	yakka va guruhda ishlash; muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys.

Amaliy vaziyat. Innovatsion tadqiqotlar bo'yicha e'lon qilingan tanlovda Sizning grantingiz g'olib bo'ldi. Grant ijrochilari belgilangan bo'lsada, tashkilot rahbari ijrochi sifatida Siz tanimaydigan bir yosh mutaxassisni grantga qo'shishga ko'rsatma berdi. Siz andisha qilib uni grantga ijrochi sifatida kiritdingiz va u bajarishi lozim bo'lgan vazifalarini belgilab berdingiz. 6 oy o'tdi. Ijrochi hech bir vazifani bajarmadi, lekin ish haqi olib yurdi. Grand ishtirokchilari o'rtasida e'tirozlar yuzaga keldi.

Bunday holatda Siz grand rahbari yoki ijrochi sifatida qanday yo'l tutasiz?

1. Rahbaringizga arz qilib, vaziyatni to'g'rakash uchun yordam so'raysiz.
2. Yosh mutaxassis vazifalarini o'zingiz bajarib borishingiz boshqa ijrochilarga aytib, vaziyatni to'g'ralsiz.
3. Yosh mutaxassis vazifalarini boshqa ijrochilar bajarishi uchun taqsimlab berasiz.
4. Maslaxatsiz uni granddan chiqarib tashlaysiz.

5. Yoki boshqacha yo'llarini topasiz.

III. MA’RUZA MATNLARI

1-mavzu. Jahon iqtisodiyotining globallashuv xususiyatlari

Reja:

1. Globallashuv jarayonining mazmun-mohiyati.
2. Globallashuv nazariyasi va global iqtisodiyot, uning asosiy xususiyatlari.
3. Globalizatsiya – iqtisodiy hodisa.

Tayanch iboralar: jahon iqtisodiyoti, globallashuv, baynalmilallahuv, global bozor, ochiq iqtisodiyot.

1. Globallashuv jarayonining mazmun-mohiyati.

Jahon iqtisoditi globallashuvi xalqaro iqtisodiyotning ajralmas qismi hisoblanib, ular jahon xo’jaligi globallashuvi jarayonlari natijasida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda xalqaro tovarlar va xizmatlar bozoriga moliyaviy xizmat ko’rsatish maqsadida shakllangan xalqaro moliya bozori o’z ko’lami va kapital oqimlari hajmiga ko’ra xalqaro tovar bozoridan bir necha marta katta hajmga ega bo’lib, natijada jahon iqtisodiyotining mustaqil va eng yirik segmentiga aylandi. O’zbekistonning milliy moliya bozori ham o’z navbatida xalqaro moliya bozoriga chuqur integratsiyalashuv jarayonlarida faol ishtirok etib kelmoqda.

Xalqaro integratsiyaning kuchayishi, mamlakatimizning xalqaro moliya bozori va institutlari faoliyatida faol ishtirok etishining kengayishi O’zbekistonning iqtisodiy rivojlanish sur’atlariga katta ta’sir ko’rsatmoqda. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017—2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi”da makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o’sish sur’atlarini saqlab qolishda ilg’or xalqaro tajribada qo’llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, etakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o’ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish asosiy vazifalar sifatida belgilanganligi bejiz emas, albatta1.

1 O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF4947-sonli “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida” Farmoni

Globallashuv davrida xalqaro moliya bozorining mohiyati va ahamiyati, uning rivojlanish xususiyatlari va tendentsiyalari, xalqaro moliya institutlarining global moliya bozori muvozanatini ushlab turish bilan bog'liq sa'y-harakatlarini keng tahlil qilish natijasida ularni chuqur o'rganish mazkur fanning predmetini tashkil etadi.

Jahon iqtisodiyotida XX-XXI asrlar bo'sag'asida globallashuv tushunchasi tobora keng qo'llanilmoqda. "Globallashuv" tushunchasi ilk bor amerikalik olimlar tomonidan kiritilgan. T.Levitt 1983 yilda "Bozorlarning globallashuvi" nomli maqolasida globalashuvni oldin tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada ko'p ko'rsatkichlarga ega bo'lган istemol tovarlari standartlashishi uchun global bozorlar paydo bo'lishi bilan bog'liq yangi tijorat voqeligi deb atagan.²

Iqtisodchi N.Trift globalashuvning quyidagi mohiyatlari ajratib ko'rsatadi:

molivayi markazlashuvning kuchayishi. Uning yordamida kredit mablag'lari shakllantiriladi, kreditlar beriladi va foydalanoladi, shuningdek kapitalning ishlab chiqarish ustidan hukmronligi o'rnatiladi;

axborotlar ahamiyatining oshishi;

global oligopolianing to'xtovsiz kengayishi;

transmilliy korporatsiya(TMK)lar sonining ortishi;

transmilliy iqtisodiy diplomatiyaning shakllanishi va milliy davlat hokimiyatining globalashuvi.

Kaliforniya universiteti professori M.Kastels globalashuv jarayonini "yangi kapitalistik iqtisod" deb atab, unda axborot, bilim va informatsion texnologiyalar ishlab chiqarish va raqobatbardoshlik o'sishning asosiy manbasi ekanligini ta'kidlaydi.

Rossiyalik olima I.G.Vladimirovaning fikricha, globalashuv jahon iqtisodiyoti baynalmilallashuvining eng yuqori bosqichidir.

Umuman olganda, jahon iqtisodiyotining globalashuvi jahon iqtisodiyotining o'zaro bog'liq turli soha va jarayonlarining kuchayib borishi, jahon xo'jaligida tovarlar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchi va bilimlar bozorini asta-sekinlik bilan yagona bozorga aylanishini bildiradi.

O'rta asrlarda shaharlarning o'sishi va savdo-sudxo'rlik kapitalining rivojlanishi Buyuk jug'rofiy kashfiyotlar ochilgan davrda mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy sohadagi aloqalarning misli ko'rilmagan darajada kengayishiga va Evropadagi etakchi davlatlar: Ispaniya, Portugaliya, Gollandiya, Frantsiya va Britaniyaning kolonial imperiyalari tashkil topishiga poydevor yaratdi.

Aynan ana shu omil, shuningdek, ishlab chiqarish, transport va aloqa vositalarida ulkan olg'a siljishni ifodalagan XVIII asrning oxiri - XIX asrning boshlaridagi sanoat

2 Глобализация мирового хозяйства: Учеб. пос / Под ред. М.Н. Осьмовой, А.В. Бойченко. - М.: ИНФРА-М, 2006. С.1.

to'ntarishi (inqilobi) zamonaviy ko'rinishdagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi uchun zarur bo'lган muhit sifatida global iqtisodiy makrotizimni yuzaga kelish jarayoniga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi.

Mustamlakachilik imperiyalarining tugatilishi va rivojlanayotgan mamlakatlar (180 dan ortiq) deb atalmish guruhlarning vujudga kelishi natijasida iqtisodiy aloqalar uch iqtisodiy markaz, ya'ni AQSH, Evropa, Yaponiya bilan Osiyo, Afrika hamda Lotin Amerikasidagi yosh davlatlar o'rtasidagi aloqalar ko'rinishini oldi.

SSSRning tarqalib ketishi va sobiq sotsialistik mamlakatlarning tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yo'liga o'tishi rejali-buyruqbozlik xo'jaligining samarasiz ekanligi va rivojlanishning bozor modeliga keng ko'lamda o'tish muqarrar ekanligini namoyish qildi.

Va, nihoyat, ixtisoslashuv va kooperatsiyaning chuqurlashuvi bilan birga kuzatiluvchi ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi bir qator integratsion guruhlar, shuningdek, universal va ixtisoslashgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar paydo bo'lishini rag'batlantirdi.

Globallashuv jarayonlarining tezlashishiga bir necha omillar ta'sir etadi, bu omillarning asosiyari quyidagilar hisoblanadi:

yopiq tipdag'i milliy iqtisodiyotdan ochiq iqtisodiyotga o'tish;
xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
davlat tomonidan tartibga solish usullarining takomillashuvi;
transmilliy korporatsiyalarning paydo bo'lishi;
baynalmilal iqtisodiy ayirboshlash mexanizmlarining vujudga kelishi;
fan va texnikaning rivojlanishi.

XX asrning oxirgi choragi jahon iqtisodiyoti o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga o'tishi boshlanganligi bilan tavsiflanadi. Bu yangi bosqich oldingi rivojlanish bosqichlaridan tubdan farq qiladi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar zamonaviy tuzilmasining quyidagi xususiyatlarini ajratish mumkin:

- a) samarali, yuqori texnologik hamda resurslarni tejovchi ijtimoiy ishlab chiqarish bilan tavsiflanuvchi axborotlar iqtisodiyotini shakllantirish;
- b) konveyer, keng xalq ommasi iste'moliga asoslangan industrial tizimni davlat, aralash va, ayniqsa, xususiy kompaniyalarning alohida yo'naltirilgan kreativ (ijodiy) xo'jalik faoliyatiga o'zgartirish;
- v) milliy iqtisodiyotlarni ochiqlashtirish tamoyillarining hududiy miqyosdag'i yopiq iqtisodiy bloklarni shakllantirish tamoyili bilan qo'shilib ketishi;
- g) xalqaro korporatsiyalar ahamiyatining ortib borishi sharoitida davlatning tartibga solish rolining kuchayishi;

d) hal etilishida jahondagi barcha mamlakatlarining jamoaviy harakatlarini talab qiluvchi, tsivilizatsiyaning global muammolari deb atalmish ekologik, xom ashyo, demografik kabi muammolarning keskinlashishi.

Zamonaviy jahon iqtisodiyotining globallashuvi quyidagi jarayonlarda namoyon bo'ladi:

- ishlab chiqarish baynalmilallahuvining chuqurlashuvi.;

kapitalning baynalmilallahuvini chuqurlashuvi, ya'ni davlatlar o'sishi, bunda eng avvalo to'g'ri investitsiyalar ko'rinishida, fond bozorlarining baynalmilallahuvini;

ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy, texnologik bilimlar vositalarini almashinuvini natijasida, shuningdek xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv, xalqaro miqyosda ishlab chiqarish resurslarining joylashuvi natijasida ishlab chiqarish kuchlarining globallashuvi;

xalqaro hamkorlikni amalga oshirishni ta'minlovchi global miqyosdagi material, axborot, tashkiliy-iqtisodiy infratuzilmaning shakllanishi;

xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi natijasida ayrboshlashni baynalmilallahuvini kuchayishi.

xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining o'sishi..

- ishlab chiqarish va iste'molning baynalmilallahuvini atrof-muhitga ta'sirining ortishi, bu esa zamonaviy global muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan xalqaro hamkorlikka bo'lган ehtiyojning ortishini keltirib chiqaradi;

Globalashuvning bir qator ijobiy va salbiy oqibatlarga ega. Globalashuv jarayonining ijobiy tomonlarini quyidagicha tavsiflash mumkin.

Globalashuv natijasida xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv chuqurlashib boradi. Bunda mablag' va resurslar samarali sarflanadi. Globalashuv jarayonining assosiy ustunliklaridan biri, xarajatlarning qisqarishi, narxlarning pasayishi va barqaror iqtisodiy o'sishga olib keluvchi ishlab chiqarish miqyosidagi iqtisod qilish hisoblanadi.

Globalashuvning ijobiy jihatlaridan yana biri erkin savdodan keladigan yutuq barcha mamlakatlarni qanoatlantiradi. Globalashuvda raqobatning kuchayishi yangi texnologiyalarni yaratilishini va mamlakatlar o'rtasida keng tarqalishini ta'minlaydi. Ushbu sharoitda xorijiy to'g'ri investitsiyalar su'ratinining oshishi jahon savdosining o'sishiga olib keladi. Globalashuvning yana bir afzalligi xorijiy davlatlarning ilg'or ilmiy-texnik, texnologik va malakali darajadagi qisqa muddatda va nisbatan kam xarajat talab qiladigan yangiliklarni amaliyatga tadbiq etish natijasida iqtisodiy qulaylikka erishishidir.

Globalashuv jarayonida xalqaro raqobat kuchayib, milliy bozordagi ichki raqobatchilarga tashqi bozordagi kuchli raqiblar ham qo'shiladi. Jahon

iqtisodiyotining globallashuvi jarayoni eng avvalo iste'molchilarga qulay, bunda raqobat ularga narxlarni pasaytirish va tanlash imkoniyatini beradi.

Globallashuv ilg'or texnologiyalarni tarqalishi va global miqyosdagi ishlab chiqarishning ratsionallashuvi natijasida mehnat unumdonligini oshishiga olib kelishi, shuningdek jahon miqyosidagi innovatsiyalarni amaliyatga uzlaksiz tadbiq etishi mumkin.

Globallashuv davlatlarga moliyaviy resurslarining asosiy qismini aylanishini ta'minlashga keng imkoniyat beradi. Globallashuv jahon hamjamiyatini birlashishini turli sohalardagi harakatlarni faollashtirishni talab qiluvchi insoniyat uchun umumiylig'ini muammolarni, eng avvalo ekologik muammolarni hal qilish uchun jiddiy asos yaratadi.

Globallashuv nazariyasi va global iqtisodiyot, uning asosiy xususiyatlari.

Globallashuvning mohiyati, sabablari va ikkita asosiy yo'nalishlarini ajratish mumkin.

Birinchi yo'nalish bu globalizatsiyani xarakterlaydigan faol guruhlar ("giperglobalistlar"). Ushbu ilmiy fikr tarafдорлари uchun asosiy xususiyatlar quyidagilar:

1. Globalizatsiya va global iqtisodiyot insoniyat rivojlanishida yangi erani boshladi, uning asosiy xususiyati kishilar o'zlarining yashash joyiga bog'liq bo'limgan holda jahon xo'jaligi va uning tuzilishiga bog'liq bo'lib qoladi.
2. Globalizatsiya – avvalambor iqtisodiy hodisa bo'lib, milliy iqtisodiyotni integratsiyalashuvi bo'lib, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Global iqtisodiyotning shakllanishi boshqa jarayonlarning lokomotivi bo'lib chiqadi.

3. Global iqtisodiyotda milliy iqtisodiyotning rol o'ynamaydi ("iqtisodiyot chegarasiz"). Ishlab chiqarish transmilliy tizimi mehnat, kapitallar, valyutalar, tovarlar va xizmatlarning transmilliy bozori orqali bog'lanadi.

4. Global iqtisodiyotda milliy davlatlar roli kamayadi, jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tashkilotining yangi modeli shakllanadi.

5. Mamlakatlarni taraqqiyoti bo'yicha shimol va janubiy davlatlarga bo'linishi, ular o'rtasida qutblanish kamayib bormay, aksincha ko'payadi. Ko'rsatilgan yondashuv doirasida ikkita yo'nalishchalarga bo'lish mumkin.

Global iqtisodiyot mamlakat ichida ham, mamlakatlar orasida ham tengsizlikni kuchaytiradi.

Hozirgi vaqtdagi jahon iqtisodiyoti ikkita asosiy tendentsiyalar bilan xarakterlanadi, ya'ni globalizatsiyalashuv va regionalizatsiya. Ushbu guruh mualliflarining fikri bo'yicha jahon iqtisodiyoti bugungi kunda nafaqat globallashmoqda, balki uchta asosiy blokda to'planib regionlashmoqda, ya'ni Evropa,

Shimoliy Amerika va Osiyo – Tinch okean hududlari. Hozirgi zamon jahon iqtisodiyotida Shimol va Janub o'rtasidagi tengsizlik kuchaymoqda. Yildan-yilga boy Shimoldagi kapitallar, tovar, xizmat, texnologiya oqimlari kuchaymoqda, shu bilan birga barcha rivojlanib kelayotgan mamlakatlar jahon xo'jaligining iqtisodiy marginal turiga aylanmoqda. Jiddiy asos bo'lib shunday fakt ham chiqmoqda, ya'ni asosiy investitsiya oqimlari mutlaqo rivojlanib kelayotganlarda emas rivojlangan mamlakatlarda to'planmoqda. Shu bilan birga bugungi kunda "global korporatsiya" haqidagi global iqtisodiyot g'oyalari tarafдорлари fikrlariga shubha tug'dirmoqda.

Skeptiklar ko'z oldida "global boshqaruv" g'oyasi afsonaviy bo'lib chiqmoqda. Bu guruh olimlari global tengsizlikning o'sishi tsivilizatsiya mojarolarini tasdiqlamoqda, xalqaro iqtisodiy munosabatlari sohasidagi siyosat, huquqiy jihatdan bir tomonlama xarakterga ega bo'lib qolmoqda. G'arb mamlakatlari boshqa dunyoga shunday iqtisodiy munosabatni zo'r lab o'tkazmoqda, bu o'z navbatida o'zlariga foydali bo'lib, jarayonlarning barcha qatnashchilariga tegishli emas. Bu jaaryonlar to'xtatib bo'lmaydigan jaryondir.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi zimmasiga quyidagi asosiy strategik vazifalar va yo'nalishlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

- mamlakatni qisqa, o'rta va uzoq muddatli davrda barqaror va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta'minlashga, aholi farovonligini oshirish va uning eng muhim muammolarini hal etishga qaratilgan kontseptsiyalar, kompleks, maqsadli, tarmoq va hududiy dasturlarini ishlab chiqish, jahon bozorlaridagi vaziyatni hamda global iqtisodiyot rivojlanishining uzoq muddatli istiqbollarini hisobga olgan holda, taklif etilayotgan echimlardan kutilayotgan makroiqtisodiy maqsadli natijalar hamda ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini chuqur kompleks hisob-kitob qilish;

- chuqur tarkibiy o'zgartirishlarni va iqtisodiyotning diversifikatsiyalashni, ichki va tashqi bozorlarda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotning raqobatdoshligini oshirishni ta'minlaydigan aniq maqsadga yo'naltirilgan strukturaviy siyosatni amalga oshirish, ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni chuqurlashtirish asosida eksport salohiyatni oshirish, iqtisodiyotning importga qaramligini kamaytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish, tarmoqlar va hududlarni mutanosib va uyg'un rivojlantirish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani ildam rivojlantirish;

- mamlakatimizni istiqbolli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, iqtisodiyotni isloq qilish va liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulknинг ustuvorligini ta'minlash, xususiy mulk va tadbirkorlikning huquq va manfaatlari himoyasini kuchaytirish, tadbirkorlik sub'ektlari bilan mustahkam hamkorlikda va ularning fikrlarini inobatga olgan holda,

iqtisodiyotni boshqarishni bozor usullari va mexanizmlarini keng joriy etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

- mintaqalar tabiiy va iqtisodiy resurslaridan samarali foydalanishni, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiyot tarkibi va aholi turmush darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf qilishni ta'minlaydigan hududlarni intensiv va kompleks rivojlantirish hamda ishlab chiqarish kuchlarini optimal joylashtirish bo'yicha takliflar, chora-tadbirlar va dasturlar ishlab chiqish, mamlakat aholisining daromadlari va bandligini izchil o'stirishni ta'minlash;

- kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini tashkillashtirish, Iqtisodiyot vazirligi apparati va uning tarkibiy bo'linmalari ishlarining usul va shakllarini tizimli asosda doimiy takomillashtirish, byurokratizm va sansalorlikka yo'l qo'ymaslik, fuqarolar murojaatlariga o'z vaqtida javob qaytarish, xodimlarga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish mas'uliyatini oshirish.³

³ O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ – 2934-son 28.04.2017 yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori



Istochnik : Nosova S.S.. Ekonomicheskaya teoriya. 2008

Globalizatsiya – iqtisodiy hodisa.

Iqtisodiy globalizatsiya «yagona jahon iqtisodiyoti, jahon bozori, pirovard natijada jahon hamjamiyatining barpo etilishidir, - deb qayd etadi V.S. Egorov. - У Марказ – AQSh boshchiligidagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning periferiya – uchinchi va to’rtinchi dunyo mamlakatlari, rivojlanayotgan va postkommunistik mamlakatlarga nisbatan mafkuraviy, siyosiy va iqtisodiy ekspansiyasi yo’li bilan milliy davlatlar chegarasidan o’tadi (ularni qo’porib tashlaydi)»¹.

Chindan ham shundaymi? Dunyo miqyosida bozor tashkil etish uchun zo’rlik ishlatalishi shartmi? Bizning nazarimizda, muallif bu erda ko’p jihatdan haq. Ko’p jihatdan, lekin to’la emas. Agar globalizatsiya iqtisodiy tazyiq va siyosiy bo’ysundirish

¹ Егоров В.С. Философия открытого общества. – 227 б.

chora-tadbirlariga asoslangan jarayon deb tushunilsa, u chindan ham haq. Lekin ushbu jarayonlarga muayyan tarixiy nuqtai nazardan qaraydigan, iqtisodiy globalizatsiyani faqat ekspansionizm natijasi emas, balki iqtisodiy jihatdan nisbatan teng bo'lgan davlatlarning ixtiyoriy ravishda asta-sekin birlashishi, qoloq mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati asta-sekin oshirilishi va tenglashtirilishi bilan bog'liq uzoq davom etadigan murakkab jarayon deb tushunadigan bo'lsak, bu erda boshqacha yondashuv, boshqacha talqin zarur. Ammo hali dunyoning bironta ham rivojlangan davlati shuni o'z oldiga bosh vazifa qilib qo'ygani yo'q.

Yuqorida qayd etilgan juda qiziqarli va foydali ilmiy-falsafiy tadqiqot muallifi aynan shu haqda so'z yuritadi. U globalizatsiya natijasida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida tafovut kuchayib borayotganini, XX asr oxiriga kelib ular o'rtasidagi iqtisodiy tafovut nisbati 74:1 ga etganini tashvish bilay qayd etadi¹. Rivojlangan mamlakatlar globalizatsiyadan tobora ko'proq naf ko'rmoqdalar, ular jahon iqtisodiyotiga qo'shilish niyatidagi yangi mamlakatlarga o'z «o'yin qoidalari»ni qabul qilishni shart qilib qo'ymoqdalar, natijada globalizatsiya jarayonlari yagona markaz – AQShdan turib tartibga solinmoqda va nazorat qilinmoqda².

Iqtisodiy globalizatsiyaga shu nuqtai nazardan qaralsa, ushbu jarayonni ro'y bergen hodisa deb emas, balki unga sari harakat deb tavsiflash mumkin.

Boshqacha qilib aytganda, hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida globalizatsiya emas, balki regionalizatsiya jarayonlari ro'y bermoqda. Shu nuqtai nazardan sotsiologik lug'atlardan biri mualliflarining «globalizatsiya – muayyan mahalliy kichik tizimlarga tabaqalashgan jahon umumiy ijtimoiy-madaniy tizimining vujudga kelishi», degan fikriga qo'shilish mumkin.

Shu munosabat bilan, bizning nazarimizda, iqtisodiy globalizatsiya sari harakat to'g'ridan-to'g'ri emas, balki iqtisodiy salohiyati teng mamlakatlarning mintaqaviy (mahalliy) uyushmalari orqali amalga oshirilmoqda. Bu erda teng salohiyatli degani bir xil degan ma'noni anglatmaydi. Markaziy Evropadagi ayrim sobiq sotsialistik mamlakatlar Evropa iqtisodiy hamjamiyatiga qo'shilishi shundan dalolat beradi. Ma'lumki, ushbu mamlakatlar o'z iqtisodiy ko'rsatkichlariga ko'ra Evropa hamjamiyatining eski a'zolaridan ancha orqada.

Ushbu tushunish jahonning rivojlangan davatlari iqtisodiy hamjamiyatiga qo'shilishning boshqa yo'llarini istisno etmaydi. Ammo bunga erishish juda ham qiyin. Hatto yaqin o'tmishda jahonning iqtisodiy jihatdan eng qudratli davlatlaridan birining o'zagini tashkil etgan Rossiya ham hanuzgacha «Katta ettilik»ning real, teng huquqli a'zosi bo'la olmayapti.

1 Егоров В.С. Философия открытого общества. – 228, 229 б.

2 Қаранг: Егоров В.С. Философия открытого общества. – 227 б.

Ko'rib turganimizdek, globalizatsiyaga o'tish shakllari juda serqirra va rang-barangdir. Ular jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarida: siyosiy va ijtimoiy sohalarda, iqtisodiyotda, madaniyatda, millatlararo munosabatlarda va h.k.da namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon iqtisodiy fani iqtisodiyot sohasida globalizatsiyaning uch asosiy yo'nalishini qayd etadi:

- a) moliyaviy globalizatsiya;
- b) jahon savdosining unumdorligini oshirish;

c) dunyo miqyosidagi transnatsional birlashmalar tarmog'ining vujudga kelishi va kengaytirilishi.

Ushbu yo'nalish doirasida globalizatsiyaning quyidagi asosiy jarayonlarini qayd etish mumkin:

- iqtisodiyotning internatsionalizatsiyalashuvi;
- jahon yagona aloqa tizimining ravijlanishi;
- axborot, bilimlar va ekspertlar ahamiyatining oshishi;
- transnatsional iqtisodiy diplomatiyaning yaratilishi.

Iqtisodiyotdagi globalizatsiyaning o'z tarafdarlari va tanqidchilari mavjud. Ayrimlar globalizatsiyaga ijobiy hodisa deb qaraydi, chunki u butun jahonda mehnat unumdorligini va odamlarning turmush darajasini oshirishga qodir. Ularning fikricha, dunyo miqyosidagi iqtisodiy integratsiya mehnat taqsimotini yaxshilaydi, mehnat haqi darajasi past mamlakatlarga ko'p mehnat sarfini talab etuvchi ishlab chiqarishlarga ixtisoslashish, mehnat haqi darajasi katta bo'lgan mamlakatlarga esa ishchi kuchidan yanada unumli foydalanish imkonini beradi. Globalizatsiya kapitalni investitsiyalar uchun qulayroq shartlar taklif qilgan istalgan mamlakatga joylashtirishga, mahalliy moliyaviy loyihalarning past daromaddorligi tuzog'iga ilinmaslikka imkoniyat yaratadi.

Globalizatsiya tanqidchilari bunga qarama-qarshi fikrlarni ilgari suradi. Ularning ta'kidlashicha, mehnat haqi darajasi past bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan raqobatning kuchayishi rivojlangan mamlakatlarda ish joylari qisqartirilishi va hatto mehnat haqining kamaytirilishiga olib keladi.

Shu nuqtai nazardan «Trud-7» gazetasida e'lon qilingan bir maqola¹ diqqatga sazovor. Unda ko'k rangli jinsi (blue jeans) ishlab chiqaruvchi mashhur «Levi Strauss» kompaniyasining taqdiri haqida so'z yuritiladi. Kompaniyaga raqobat tazyiqi kuchayishi natijasida u ishlab chiqarish hajmining bir qismini ishchilar o'z mehnati uchun ko'p haq to'lamaydigan joylarga, ya'ni rivojlanayotgan mamlakatlarga

1 Қаранг: «Джинсовое счастье». Газета «Труд-7», 18 апреля 2002 г. №68.

ko'chirishga majbur bo'ldi. Maqola mualliflarining fikricha, ushbu tazyiq zamirida aynan globalizatsiya jarayonlari yotadi. Unda rivojlangan mamlakatlar o'z raqobatbardoshligini oshirish uchun mehnat haqini va ijtimoiy ta'minot nafaqalarini kamaytiradi, atrof muhit ustidan nazoratni susaytiradi. Raqobat tazyiqi natijasida aksariyat davlatlar o'z iqtisodiy siyosatini amalga oshirish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Iqtisodiy tangliklarni vujudga keltirishga qodir moliya korchalonlari ta'siri kuchayib borayotgani ham jiddiy tashvish uyg'otadi.

Shu munosabat bilan milliy iqtisodiyotlar yagona jahon xo'jaligiga qo'shilishi jarayoni ilgari ro'y bergan jarayonlarga qaraganda bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ilgari, XX asr boshida jahonning katta qismi global iqtisodiyotda ishtirok etmas edi. Bugungi kunda savdo-sotiq va investitsiyalarga o'z chegaralarini olib qo'yan mamlakatlar soni juda ko'paydi. Nafaqat rivojlangan mamlakatlar, balki rivojlanayotgan mamlakatlar ham bozor munosabatlariga o'tish bilan bog'liq islohotlarni amalga oshirmoqdalar.

Ikkinchi xususiyat aloqa vositalari qiymati kamayishi hisobiga transport xarajatlarining qisqarishida ifodalanadi. Arzon va samarali kommunikatsiyalar tarmog'i firmalarga ishlab chiqarish jarayonining har xil tarkibiy qismlarini turli mamlakatlarga joylashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalari ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida jismoniy aloqailish zaruriyatini ancha kamaytiradi va ularga ilgari xalqaro bozorlarda sotishning iloji bo'lмаган tovarlarni realizatsiya qilishning yangi shakllarini topish imkonini beradi.

Uchinchi xususiyat – yalpi xalqaro moliya oqimlari tobora ko'payib bormoqda. Masalan, er yuzidachet el valyutasining kundalik aylanmasi 1973 yilgi 15 mlrd. AQSh dollaridan 2000 yilda 1,5 trln. AQSh dollariga ko'paydi.

To'rtinchi xususiyat fan-texnika taraqqiyoti va «axborot jamiyati»ning shakllanishi bilan bog'liq. Ommaviy sanoat ishlab chiqarishi odatdagি hodisaga aylandi. Uchinchi dunyo mamlakatlaridagi ta'lim dasturlari va texnik taraqqiyot natijasida turli mamlakatlar ishchilarining mehnati bir xillashdi, binobarin, mehnat haqidagi katta tafovut hisobiga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkoniyati kengaydi.

Transnatsional korporatsiyalar global iqtisodiyot rivojlanishini harakatlantiruvchi kuchlardan biriga aylanib bormoqda. Masalan, transnatsional korporatsiyalar o'z mamlakatlaridan tashqarida amalga oshirgan sotish hajmlari eksport hajmlaridan 20-30% tezroq o'smoqda. Transnatsional korporatsiyalar umumiy sotish hajmining o'rta hisobda 45% ni eksport tashkil etadi. Moliya bozorlarida transnatsional korporatsiyalar muhim operatsiyalar holatini belgilovchi qudratli kuchga aylanmoqda.

Ularning yalpi valyuta zaxiralari jahoning barcha Markaziy banklari umumiy valyuta zaxiralaridan bir necha baravar ko'p.

Xullas, globalizatsiya ham davlatlararo, ham transnatsional shakllarda rivojlanadigan ikki yoqlama jarayon. Shu sababli uning tashuvchilari ham ko'p: davlatlar, ularning ittifoqlari, xalqaro tashkilotlar, nohukumat tashkilotlari. Iqtisodiy globalizatsiyaning tabiatи ikki qarama-qarshi tendentsiya: 1) rang-baranglikning kamayishiga qarab bir xillashish va 2) turmush darajasi va tarzida tafovutlarning ko'payishida ham namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi iqtisodiy globalizatsiya muammolarining tahlilida O'zbekiston Respublikasida ro'y berayotgan globalizatsiya jarayoni va uning jahon hamjamiyatiga, shu jumladan xalqaro iqtisodiyotga qo'shilishi biz uchun alohida o'rinn egallaydi.

Ushbu jarayonda respublikamiz o'rnini belgilar ekan, I.A.Karimov O'zbekiston kapital sarflash nuqtai nazaridan ham, dunyo miqyosidagi keng qamrovli xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida mintaqada barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan ham borgan sari e'tiborga sazovor bo'lib borayotganini qayd etadi. «Bunday sharoitda integratsiya jarayonini, xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlarning ishtirok etishini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqozosi deb emas, balki ayrim mintaqalar ko'lamida ham, shuningdek, umuman - butun sayyoramiz ko'lamida ham sobitqadamlik, barqarorlikning qudratli omili deb hisoblamoq zarur»⁴.

O'zbekiston bir vaqtning o'zida turli darajalarda - dunyo miqyosida va mintqa ko'lamida - integratsiya jarayonlarida qatnashsa-da, ammo bir muhim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi.

Mustaqillik yillarda mamlakatda tashqi iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish, jahon iqtisodiy tizimiga O'zbekistonning qo'shilishi yo'llarini mustaqil belgilash tamoyillari ishlab chiqildi va izchil amalga oshirilmoqda.

2001 yil iyunda Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlarining sammitida so'zlagan nutqida I.A.Karimov Tashkilotga a'zo mamlakatlar o'rtasida nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy aloqalarni ham yanada mustahkamlashga chaqirdi va: «Bizning diqqat-markazimizda ko'p qirrali iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik tizimini tashkil etish va chuqurlashtirish masalalari turishi lozim»,⁵ deb qayd etdi.

4 Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари, тараққиёт кафолатлари. – Т., Ўзбекистон, 1997. – 288 б.

5 Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. 9-жилд. – Т., 2001. – 347 б.

**Иқтисодий глобаллашувнинг асосий йўналишлари
қўйидагилардан иборат**

молиявий глобаллашув

трансмиллий корпорациялар фаолиятининг глобаллашуви

халқаро савдонинг либерализациялашуви

иқтисодиётнинг мантақалашуви

етакчи мамлакатларнинг информацион иқтисодиётга ўтиши

**Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашув кўрсаткичлари
1990,2014–2016 йй.**

№	Кўрсаткичлар	Жорий нархлардаги хажми (м.лрд.доллар)				
		1990 й.	2005–2007 йй. (инкирозгача бўлган давр ўргача кўрсаткичлари)	2014й.	2015й.	2016й.
1	Жаҳон ЯИМ	23464	52331	78501	74178	75259
2	Товар,хизматлар экспорти	4424	14952	23563	20921	20437
3	Тўғридан–тўғри хорижий инвестицияларни оқими	205	1 426	1 324	1774	1746
4	Тўғридан–тўғри хорижий инвестицияларни оқиб кетиши	244	1459	1253	1594	1452
5	Олиб кирилган тўғридан–тўғри хорижий инвестициялар умумий хажми	2197	14496	25108	25191	26728
6	Олиб чикилган тўғридан–тўғри хорижий инвестициялар умумий хажми	2254	15184	24686	24925	26160
7	Трансчегаравий кўшилиш ва ютилиш	98	729	428	735	869
8	Хорижий филиалларнинг кўшилган киймати (ишлаб чикариш)	1073	4636	7355	8068	8355
9	Хорижий филиалларнинг жами активлари	4595	41140	104931	108621	112833
10	Хорижий филиаллар сотиши хажми	5097	19973	33476	36069	37570
11	Хорижий филиаллар экспорти	1444	4976	7854	6974	6812

UNCTAD, World Investment Report 2017.

Nazorat savollar:

1. Globallashuv jarayonining mazmun-mohiyati.
2. Globallashuv nazariyasi va global iqtisodiyot, uning asosiy xususiyatlari.
3. Globalizatsiya – iqtisodiy hodisa.

Foydalilanigan adabiyotlar

G.G.Nazarova, Z.M.Iminov, X.X.Xalilov, O.B.Xamidov. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. -T.: TDIU, 2011.

1.Klyukov L.N.Mirovaya ekonomika i ekonomiceskaya teoriya.M., 2014.

Dumnaya G.M.Novaya ekonomiceskaya teoriya. M.,2013

O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida PQ – 2934сон 28.04.2017 yildagi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.

Egorov V.S. Filosofiya otkritogo obshchestva. – 228, 229 b.

Qarang: Egorov V.S. Filosofiya otkritogo obshchestva. – 227 b.

2-mavzu. Jahon xo'jaligining globallashuvi bosqichlari va rivojlanish tendentsiyalari

Reja:

1. Jahon xo'jaligining taraqqiyot bosqichlari va tendentsiyalari.
2. TMKlar xalqaro kapital bozoridagi o'rni va ishtiroki.
3. Global hamkorlik va majburiyat tushunchasi va mohiyati.

Tayanch iboralar: transmilliy kompaniyalar, global hamkorlik, kapital bozori, iqtisodiy baynalmilallashuv.

1. Jahon xo'jaligining taraqqiyot bosqichlari va tendentsiyalari.

Hozirgi zamon jahon xo'jaligi o'z taraqqiyoti davrida bir necha bosqichlarni bosib o'tgan. Ular quyidagilardan iborat:

1-bosqich: XIX asrning oxirlari–1939 yilgacha. Jahon xo'jaligi mustamlakachilik tuzimiga ega bo'lган. Investitsiya (sarmoya)lar rivojlangan mamlakatlardan to'g'ridan to'g'ri rivojlanayotgan mamlakatlarga yo'naltirilgan. Kapital eksport qilgan mamlakatlar nazorat ostida bo'lган hududlarda tabiiy resurslardan foydalanish jahon iqtisodiy tartibining qonuniy ko'rinishda bo'lган. Shu tariqa rivojlanayotgan mamlakatlarda ma'lum ixtisoslashgan tarmoqlar vujudga kelgan. Ularning ishlab chiqarish quvvatlari yangilangan. Ammo ularning iqtisodiyoti mono (yakka) tarmoq xarakterida bo'lган.

2-bosqich: 1945-1975 yillar. Mustamlaka mamlakatlarning milliy ozodlik kurashi, mustamlakachilik tizimining qulashiga olib keldi. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar siyosiy mustaqillikka erishgach, xorijiy mulklarni natsionalizatsiya qildilar. Iqtisodiyotning davlat sektorini yaratdilar. Natijada xorijiy kapital oqimi va ularning yo'nalishi o'zgara bordi.

Xususiy kapitalning 90 % eksporti rivojlangan mamlakatlarga yo'naltirila boshladi. Ushbu bosqichda global boshqaruv instituti (BMT, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Butunjahon savdo tashkiloti va boshqalar) vujudga keldi. Ular iqtisodiyotning turli sohalarida va siyosiy munosabatlarda mamlakatlarning huquqiy me'yorlarini ishlab chiqdilar.

3-bosqich: 1975 yildan to hozirgi kungacha. Jahon iqtisodiyotida katta hukmronlikni transmilliy korporatsiyalar (TMK)lar qo'lga oladi. Ushbu bosqichda rivojlangan mamlakatlar va transmilliy korporatsiya kapital quyilmalar tuzilishini ratsionalizatsiyalash, hududiy, iqtisodiy integratsiya-baynalminal ustunligidan foydalanishga intiladilar. Tashkiliy yoki bozoriy imkoniyatlarni, qo'shimcha

texnologiyalarni olishga harakat qiladilar. Globallashuv jarayonida tadbirkorlik faoliyatining asosiy roli TMK larga tegishli bo'lib qolmoqdalar.

TMKlar xalqaro kapital bozoridagi o'rni va ishtiroki

TMKlar xalqaro kapital bozorida o'z boshqaruvi ostida kuchli baynalminal tizim yaratuvchi faol ishtirokchilarga aylanishdilar. Ilm-fan faoliyatiga tayangan holda TMKlar texnologiyalar yaratish va ularni global tarqatilishida asosiy kuchga aylanadi. Etakchi TMKlar tom ma'noda ko'p millatli bo'lib, sanoatlashtirish va servis xizmatlarini keng yoyib berish ularga xos usuldir. YuNKTAD tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, etakchi ko'p millatli kompaniyalar jahondagi deyarli barcha mamlakatlarda 449 mingdan ortiq o'z filiallar faoliyatini muvofiqlashtirib turganligi qayd etilgan.

Jahondagi o'nta yirik TMKlar xorijiy tovar aylanishining 30 % ni va TMK lar xorijiy aktivligining 34 % ni nazorat qilib turibdi. 100 tadan ortiq yirik TMK larning birlashgan hissadorlik kapitali 5,5 trln. dollarni tashkil qiladi. Yirik TMKlar ixtisosi asosan bosh tarmoqni qamrab oladi: elektronika va elektr uskunalar (17 firma), kimyo va farmatsevtika (16 firma), neft va boshqa energoresurslar (14 firma), avtomobillar va ularga uzellar, agregatlar ishlab chiqarish (14 firma), shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar (12 firma) ishlab chiqarish. Elektronika va elektr uskunalari ishlab chiqarish bilan band TMKlar ko'proq xorijiy aktivlarga ega. Chet el filiallari birlashgan tovar-oboroti jahonda savdoda bo'lган 80 % elektronika, (maishiy va sanoat elektronika, telekommunikatsiya vositalari, elektr uskunalar)ni tashkil etadi.

Keyingi paytlarda kapital bozorida uncha katta bo'lмаган Belgiya Niderlandiya, Shvetsiya, Finlyandiya kabi mamlakatlar TMK lari roli sezilarli oshayapti. Milliy bozor imkoniyatlarining cheklanganlari ularni yangilarini izlashga majbur qilayapti.

TMK lar talab ehtiyojning o'zgarishiga qarab butun jahon bo'yicha ishlab chiqarishni fabrikadan-fabrikaga ko'chirish orqali, quvvatlaridan unumli foydalanish, buyumlarning umrini uzaytirishga harakat qilmoqda. Avvaliga ularni modaga ishqiboz bo'lган jahondagi boy mamlakatlarda ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yadi. So'ngra unchalik boy bo'lмаган rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarishni tashkil etadi. TMK lar shunday qilib, jahon iqtisodiyotini baynaminallashtiradi. Xalqaro mehnat taqsimotiga asoslangan integratsiya ishlab chiqarish faoliyati hozirgi zamon jahon iqtisodiyotining xarakterli qirralarini belgilaydi.

1. ТМК лар молиявий оқимларининг умумий тавсифи

**UNCTAD томонидан қўйидаги мезонлар асосида
компанияларнинг ТМК мақоми аниқланади**

камида б та мамлакатда филиаллар мавжудлиги

йиллик обороти (сотиш ҳажми) 1 млрд. доллардан ортиқ бўлиши

компания умумий активлари қийматида хорижий активларнинг улуши
камида 25-30 фоизни ташкил этиши

компания умумий оборот ҳажмининг 1/5-1/3 қисми мамлакат
ташқарисида амалга оширилиши

3 ва унда ортиқ мамлакатларда 25 фоиздан кам бўлмаган миқдордаги
акцияларга эгалик қилиш

ТМК ларнинг ривожланиш босқичлари

ТМК лар пайдо бўлишидан 1918 йилгача бўлган даврда картел ва
синдикатлар шаклида бўлган

ТМК ларнинг иккинчи авлоди 1918–1939 йилларда трестлар
кўринишида шаклланган

ТМК ларнинг учинчи авлоди 1945–1960 йилларда концерн ва
конгломератлар кўринишида фаолият юритган

ТМК ларнинг тўртинчи авлоди 1970–1980 йиллар


ТМК ларнинг бешинчи авлоди, XXI аср бошида глобаллашувнинг
минтақалашуви жараёнлари даври

ТМК ларнинг 2015 йилги жаҳон рейтинги

рейтинг	Компания	Мамлакати	Обороти млрд. \$	Фойдаси млрд. \$	Актив-лари млрд. \$	Капиталлашуви млрд. \$
1	ICBC	Хитой	166.8	44.8	3,322	278.3
2	China Construction Bank	Хитой	130.5	37	2,698.9	212.9
3	Agricultural Bank of China	Хитой	129.2	29.1	2,574.8	189.9
4	Bank of China	Хитой	120.3	27.5	2,458.3	199.1
5	Berkshire Hathaway	АҚШ	194.7	19.9	534.6	354.8
6	JPMorgan Chase	АҚШ	97.8	21.2	2,593.6	225.5
7	Exxon Mobil	АҚШ	376.2	32.5	349.5	357.1
8	PetroChina	Хитой	333.4	17.4	387.7	334.6
9	General Electric	АҚШ	148.5	15.2	648.3	253.5
10	Wells Fargo	АҚШ	90.4	23.1	1,701.4	278.3

Манба:<http://forbesreprints.com/global-2000/>.

ТМК ларнинг умумий молиявий оқимлари схемаси



Халқаро молия бозорида ТМК ларнинг иштирок этиш схемаси



Global hamkorlik va majburiyat tushunchasi va mohiyati

Globallashuv jarayoni bilan yonma-yon hududlashtirish jarayonlari ham rivoj topib bormokda. Evropa ittifoqi (EI), Shimoliy Amerika erkin savdo assotsiatsiyasi (ShAES), Osiyo Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati (OTIH), Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) kabi integratsiyalashgan tuzilmalar vujudga keldilar. Shunday qilib jahon iqtisodiyotida ikki yonma-yon jarayon – globallashuv va hududiylashtirish jarayonlari borayapti. Ular bir-birlarini to'ldirib, sayyoramizni yagona iqtisodiy kenglikka aylantirmokda.

Jahon siyosiy va iqtisodiy xaritasi keyingi yillarda jiddiy o'zgarishlarga duch keldi. Ruy berayotgan o'zgarishlar va ularning dinamikasi mamlakatlar xalqlarini o'tish-ko'chish, joy almashish jarayonlari mohiyatini belgilaydi. Bu mohiyat ilmiy-texnik resurslar rivojlanishi natijasida insoniyat taraqqiyotining postindustrializm bosqichini belgilab beradi.

Postindustrializm – markazida «insoniy kapital» turgan yangi tip ishlab chiqarishdir. U kaerda zarur shart-sharoitlar vujudga kelsa o'sha erda bilimlar, kasbmalaka ko'nikmalari, talant, shaxsnинг ijodiy imkoniyatlarini birlashtiruvchi imkoniyat sifatida yuzaga chikadi.

Jahon modernizatsiyalashayotgan kenglikni bir butunligicha o'sha rivojlanayotgan vektorga birlashtiradi. Hozirgi zamon jahon xo'jaligi markazida AQSh, G'arbiy Evropa, Yaponiya turishibdi va ular modernizatsiya markazi hisoblanishadi.

Jahon xo'jaligi uchun quyidagi rivojlanish tendentsiyalari (intilishlar) xarakterlidir:

1. Global muammolarni global hamkorlik va majburiyatlar natijasidagina hal etish mumkin. Yangi tahdidlar - SPID epidemiyasi, raketa-yadro texnologiyasining tarqalishi, yadro terorizmi ehtimoli xavfi paydo bo'ldi. AQSh ning «World-watsh» instituti ma'lumotlariga qaraganda, jahon har yili 10 mln. gektarga yaqin o'rmonni, 9 mlrd. tonna haydaladigan er qatlamini yo'qotmoqda. 2030 yilga borib jahon aholisi soni 10 mlrd. kishiga etishi mumkin. Bu hayot standartlarini saklash uchun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini 4 marta ko'paytirishni, energiya ishlab chiqarishni 6 marta oshirishni talab qiladi. Turgan gap, tez taraqqiy etgan texnologiyada ham bunga erishish ancha qiyin bo'ladi. Dunyo aholisi sonini barqarorlashtirish uchun tug'ilishning o'rtacha koeffitsentini 2,1 darajagacha kamaytirish lozim bo'ladi.

2. Jahonning bir butunligi va o'zaro bog'liqligi milliy davlatlar xalqaro siyosiy bo'linishi ziddiyatiga duch keladi. XX asr boshlarida xalqaro tartibni 6-7 ta buyuk davlatlar o'z mustamlaka imperiyalari bilan siyosiy ittifoqchilariga tazyiq o'tkazish orqali namoyon etgandi. Oqibatda mustamlakachilik tizimining emirilishi natijasida 100 dan ziyod davlatlar vujudga keldi. «Sovuk urush» xavfi tugaganidan keyin bu tendentsiya yangi kuch oldi. Sovet ittifoqi, Yugoslaviya, Chexoslavakiya davlatlari parchalanib ketdi, yana o'nlab yangi mustaqil davlatlar tashkil topdi. Natijada, dunyo siyosiy xaritasida 2006 yilda 1945 yilga qaraganda mamlakatlar umumiy soni uch baravarga ko'paydi. Agar bu jarayon bundan keyin ham davom etadigan bo'lsa, ekspretlarning fikricha, jahon xo'jaligida mamlakatlar soni 300 taga etishi mumkin.

Odatda davlatlarning tashqi siyosati «milliy manfaatlari» dan kelib chiqqan shartlar asosida shakllanadi. Ko'pincha «milliy manfaatlari» mafkuraviy maqsadlarga diniy va millatchilik tusini beradi. Bu esa milliy manfaatlар haqida noto'g'ri tasavvurlar uyg'otadi, xalqaro munosabatlarda yangi global vokeliklarda tobora ko'proq ziddiyatlar keltirib chiqaradi.

Diniy va etnik belgiga qarab bo'linish tendentsiyasi xalqaro tizimni alg'ov-dalg'ov qilib, boshi berk ko'chaga kiritib qo'yishga qodirdir.

3. Modernizatsiya jarayonlarida ziddiyatlarning chuqurlashuvi. Rivojlangan g'arb mamlakatlari modernizatsiya jarayonlarida oldinda borishdi, mustaqil ravishda yangi texnologiyalar, uskunalar yaratadilar. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar g'arbning tashqi ta'siri ostida modernizatsiya jarayonlariga tortilmokda. Bu ularning

texnologik qaramligini kuchaytirib, jahon xo'jaligi sohalaridan o'rIN egallashini ta'minlaydi.

4. Jahon xo'jaligning uch markazi o'rtasidagi ziddiyatlar. G'arbiy Evropa barcha mamlakatlarning birlashgan potentsiali sifat ko'rsatkichlari AQSh va Yaponiyani birga qo'shib olgan darajada turibdi. Shu bilan birga G'arbiy Evropa, AQSh va Yaponiya o'rtasida texnologik uzilishlar qisqargan bo'lsada, hozirgacha AQShning etakchi o'rnini pasaytira olishgani yo'q.

Valyuta urushi davom etayapti. AQSh ayniqsa bu sohada alohida faollik ko'rsatayapti. Amerika dollari hozircha jahon valyuta bozorida valyuta zahirasi sifatida etakchi bo'lib turibdi. Jahondagi ko'pchilik mamlakatlar valyuta zahirasining 60 % ni Amerika dollari tashkil qiladi. G'arbiy Evropa Evro hisob birligi qulay sharoit yuzaga kelishi bilan haqiqiy valyuta zahirasiga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda tahminlarga ko'ra, uning ulushiga 25 % valyuta zahiralari to'g'ri keladi.

5. Rivojlangan mamlakatlar hamkorligi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar guruhi litsenziyalar, patentlar olish sohasida ustunligini saqlab kelmoqda. Jahon patent va litsenziya oborotining 90 % ularning hissasiga to'g'ri keladi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar xo'jaligi iqtisodiy o'sishni ta'minlash, inqiroz qiyinchiliklarini engishda bir-biri bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritayapti. Evropa integratsiyasini muoffakiyatli rivojlantirayati, kollektiv xavfsizlik mustahkamlanayapti. Rivojlangan mamlakatlar Evropa mamlakatlarida iqtisodiy islohatlarni qo'llab-quvvatlatlamoqdalar.

Shunday qilib, hozirgi zamon jahon xo'jaligning uch markazi raqiblikni yo'qotmasada hamkorlikka urg'u bermoqda.

Nazorat savollari

1. Jahon iqtisodiyotida mamlakatlarni tasniflashning mohiyati va mazmuni.
2. Jahon mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish darajasi.
3. Xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra tasniflash usullari.

Foydalanilgan adabiyotlar

O. P. Timoshenko, E. A. Pavlenko, O. A. Silich. Vneshneekonomiceskaya deyatelnost predpriyatiya: uchebnoe posobie. - Novosibirsk: Sibstrin, 2008.

S. P. Maltsev, M. V. Soloveva. Vneshneekonomiceskaya deyatelnost: uchebnoe posobie. — M.: Izd-vo MGOU, 2010. — 213 s.

Nigmatullina R. A. Vneshneekonomiceskaya deyatelnost v sfere uslug: uchebnoe posobie po spetsialnosti 100103.65 «Sotsioalno – kulturniy servis i turizm». — Ufa: UGUES, 2013. — 80 s.

3-mavzu. Globallashuv sharoitida investitsion faoliyat orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash

Reja:

1. O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvi.
2. Globallashuvning davlatning investitsiya siyosatiga ta'siri.
3. Globallashuv sharoitida investitsiya siyosatini ishlab chiqish.

Tayanch iboralar: integratsiya, iqtisodiy integratsiyalashuv, investitsiya, investitsiya siyosati.

Globallashuv jarayonining hozirgi bosqichidagi muhim yo'nalishlardan biri – O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish hamda jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonlarini kuchaytirish hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizning ko'plab mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishi, jahondagi turli iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning teng huquqli a'zosiga aylanishi e'tiborga molikdir.

Hozirgi davrda Respublikaning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi asosiy strategiyasi import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni tashkil qilish bilan birga eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish va o'zining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishdan iborat.

Respublikada bozor islohotlarini amalga oshirish modelining asosiy tarkibiy qismlardan biri tashqi savdodir. Davlat eksport siyosati mustaqillik yillari davomida birinchi navbatda kerakli tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy sharoitlarni yaratishga qaratilgan edi, bu pirovard natijada tashqi savdo aylanmasi tuzilmasidagi ijobjiy o'zgarishlarga:

- neft va uni qayta ishlash mahsulotlari hamda energiya tashuvchilarini eksport bazasining kengaytirilishi;
- import tuzilmasidagi siljishlar – energiya tashuvchilarini, bug'doy, g'alla ulushining kamaytirilishi hamda mashinasozlik mahsuloti importi hajmlarining ortishi;
- tashqi savdoning ekvivalentligi hamda o'zaro tovar etkazib berish hajmlarining teng kuchliligi muammolarining susayishi;
- Markaziy Osiyo mintaqasida tashqi iqtisodiy integratsiyaning kuchaytirilishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvida uning xududiy va global darajadagi raqobatbardoshligi bo'yicha qiyosiy ustunligi, tashqi iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va uni amalga oshirish bilan ko'p jihatdan bogliq.

Amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar bo'yicha qizg'in munozaralarning mavjudligiga qaramasdan, tashqi iqtisodiy siyosatni ishlab chikishda, xukumat mamlakatning geografik, ishlab chiqarish va texnologik, mehnat resurslaridan foydalannsh samarasini inobatga olmoqda. Xalkaro mehnat taqsimotiniig kuchayishi xalqaro moliyaviy munosabatlar ishtirokchilaridan yukori darajadagi raqobatbardoshlikni talab etadi.

Shu jihatdan jahon xo'jaligidagi O'zbekiston qo'shni MDH mamlakatlaridan o'zining quyidagi xalkaro ustuvorliklari bilan ajralib turadi:

- qadimiy boy madaniyat, tarixiy va diniy yodgorliklar xalkaro turizm sanoatini rivojlantirnsh uchun qulay imkoniyatlarni yuzaga keltiradi;
- qulay tabiiy iqlim va tabiiy boyliklar — ishlab chikarish, qurilish va qishloq xo'jaligi soxasida raqobatbardosh muhitni shakllantirada;
- "Buyuk ipak yo'li"da joylashganligi xalkaro integratsiyada Evropa bilan Osiyoni bog'lovchi "ko'prik" vazifasini bajarishga etarlicha imkoniyatni vujudga keltiradi;
- O'zbekiston Respublikasi etarli darajada malakali mutaxassislar bilan ta'minlangan. Zamonaviy texnologiya va ishlab chiqarish infratuzilmasini barpo qilish bu sohadagi imkoniyatlarni kengaytiradi:
 - mamlakat hukumati tomonidan ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish va eksportni rag'batlantirish siyosatining yuritilishi.

O'zbekiston Respublikasining xalkaro moliya munosabatlaridagi ishtirokida xalkaro moliya institutlari bilan xamkorlik muxim ahamiyat kasb etadi.

Shuni inobatga olib, 1992 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 633-XP sonli "O'zbekiston Respublikasining Xalqaro Valyuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Investitsiyalarini kafolatlash bo'ypcha ko'p tomonlama agentlikka a'zo bo'lishi to'g'risida"gi qarori kabul kilindi.

XVF va Jahon banki kabi tashkilotlar bilan xamkorlikning yo'lga qo'yilishi nafaqat respublikaning jaxon bozoriga inegratsiyasini tezlashtirdi, balki amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash samarasini oshirdi.

Xalkaro moliya institutlari bilan aloqalarning salmoqli qismi xalkaro kreditlar va qarzlar masalasi bilan bog'liq. Ushbu munosabatlarni amalga oshirishniig huquqiy asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasiniig "Byudjet tizimi to'g'risida"gi, "Tashqi qarzdorlik to'g'risida"gi qonunlari va boshka me'yoriy aktlar ishlab chiqildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida olingan kreditlar va qarzlar, asosan qiska muddatli bo'lib, ichki bozorni istemol tovarlar bilan to'ldirishga karatilgan bo'lsa,

keyingi yillarda xukumat mazkur qarzlarni jalb qilish soxasinn tarkibiy jixatdan qayta o'zgartirish bo'yicha ma'lum ishlarni olib bormoqda.

Olinadigan qarzlar va jalb qilinadigan uzoq muddatli kreditlarning asosiy yo'nalishlari sifatida eksport saloxiyatini kengaytirish, import o'rmini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish sohalari tanlandi. Mineral xomashyo resurslarini, shu jumladan neft' va gazni ishlab chiqarish va qayta ishslash, kishloq xo'japigi mahsulotlarini qayta ishslash, mashinasozlikni rivojlantirish, telekommunikatsiya sohasini zamonaviylashtirish xamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish - xorijiy investitsiyalar jalb qilinadigan ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralmoqda.

Xorijiy investitsiyalar miqyosining keskin ortishi va sifat darajasi amalga oshirilayotgan davlat investitsiya dasturi xaqida ma'lumot beradi. Uning maqsadi - milliy va xorijiy investorlarning investitsion faoliyatini optimal darajada huquqiy tartibga solishdan iborat.

Xorijiy kapital oqimini rag'batlantirish, jorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga xizmat ko'rsatuvchi moliya-valyuta infratuzilmasini tashkil etishga bog'liq.

Moliya-valyuta infratuzilmasi xo'jalik sub'ektlari bilan jahon pul-kapital bozori o'rtasidagi aloqalarni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu infratuzilmalarni tashkil etish, quyidagi yo'nalishlarni qamrab oldi:

- bank tizimini takomillashtirish;
- ichki sug'urta xizmatlari sohasini rivojlantirish;
- ichki valyuta bozori faoliyatini yaxshilash;
- lizing xizmatlari bozorini rivojlantirish;
- audit va maslahat xizmatlar bozorini rivojlantirish;
- milliy tovarlarni xalqaro bozorlar tomon xarakatini tashkil etish va bosh.

O'zbekistan Rsspublikasining xalqaro xamkorligmi va iktisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari belgilandi, u mamlakatni xalqaro bozorga qo'shilishining asosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi tabiiy resurslarga boy, sanoat va qishloq xo'jaligida etarli darajada rivojlangan ayrim ishlab chiqarish tarmoqlariga ega. Misol uchun, O'zbekiston tabiy gaz qazib olishda dunyoda 9-o'rinda, oltin qazib chiqarishda 7-o'rinda, oltingugurt kislotasi va mineral o'g'itlar ishlab chiqarishda va pilla etishtirishda 7-o'rinda turadi.

Yuqortsdag'i tabiiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda respublikaning xalkaro moliya munosabatlari va jahon xo'jaligiga integratsiyasi majmui aniq belgilangan maksadlar hamda ularni amalga oshirishga qaratilgai asosiy tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Birinchidan, respublika milliy iqtisodiyotining kuchli eksport bo'g'inini tashkil etuvchi va unnng jahon bozorida munosib o'rinnn egallashini ta'minlovchi bo'g'inalarni aniqlash;

Ikkinchidan. iqtisodiyotning eksport sohasida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash usulidan keng foydalanish.

Bu usullar quyidagilardan iborat:

- eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish uchun imtiyozli foizlar bo'yicha uzoq muddatli kreditlar ajratish, mo'ljallangan investitsiyalarni sug'urtalash;

- eksportyorlarga milliy ishlab chiqarish va uning xorijiy raqobatchilari ishlab chiqarishi xarajatlari o'rtasidagi farqni qoplash;

- davlat tomonidan respublikaga ilg'or texnologiyalar, tajribalar va bilimlarning kirib kelishi uchun subsidiyalar ajratish;

- eksport va imtyurtni litsenziyalash yoki chetga mol chiqarishga va chetdan uni olib kelishga ruxsatnomalar berish;

- ishlab chiqarish jarayonida katnashuvchi, xorijdan keltirilgan xomashyo va materiallar, asbob-uskunalar hamda jihozlar ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish va boshqalar.

Shu bilan birga xalqaro moliya sohasidagi siyosat milliy valyutani mustaxkamlash va uni boshqa valyutalarga erkin almashuvini ta'minlashni, ichki narxlarni jahon bozori narxlariga yaqinlashtirish maqsadida baxolar isloxitini tugallashni, tashqi iqtisodiy faoliyatning me'yoriy-xuquqiy asoslarini xalqaro talablar darajasiga etkazishni nazarda tutadi.

O'zbekiston uchun bu soxadagi asosiy strategik maqsadlar quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodpy tizimi integratsiyasiga qo'shilib borishini ta'minlash;

- eksport potentsialini rivojlantirish;

- import va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlatirish;

- investitsiya siyosatini takomillashtirish;

- xorijiy investitsiyalarni jalg qilish;

- eksport mahsulotlari ishlab chiqarish zonalari va erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirish;

- tashqi iqtisodiy faoliyat infratuzilmasini rivojlantirish.

Mamlakatning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining muhim tarkibiy qismi – davlatlarning turli xalqaro miitaqaviy birlashmalari, xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantirishdan iborat. O'zbekiston mintaqaviy xalqaro tashkilotlar, chunonchi, Evropa Ittifoqi, EXHT, NATO, EKO, OIK va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda. Bular Ittifoqi bilan O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda bir qancha muhim ishlar amalga oshirildi.

Bunday sharoitlarda bizning fikrimizcha quyidagilar O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining imtiyozli yo'nalishlari bo'lishi lozim:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni maqsadga yo'naltirilgan holda liberallashtirish siyosatini o'tkazish;
- eksport va import tuzilmasini, ularning ishlab chiqarish salohiyotini rivojlantirish yo'li bilan takomillashtirish;
- respublikamizdagi eksportga mo'ljallangan, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini himoya qilish va qo'llab-quvvatlash;
- xorijiy kapitalni avvalo moddiy eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishga jalb qilish;
- O'zbekistonni jahon transport kommunikatsiyalariga integratsiyalashuvini rivojlantirish.

Yuqori texnikaviy saviyadagi tayyor mahsulot ulushining oshirilishi yuqorida aytib o'tilgan chora-tadbirlar ichida muhim o'rinni tutishi lozim, buning uchun esa quyidagilarni bajarish zarur:

- respublikamizdagi eksportchilarning mahsulotini sotish bozorini shakllantirishda muhim rol o'ynovchi xorijiy mamlakatlardagi korxonalar bilan O'zbekistondagi eksportchi korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarining shakllanishiga ko'maklashish;
- chuqur qayta ishlash mahsulotlarini yuqori texnologiya va ilm talab qiluvchi buyumlar ishlab chiqariladigan eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarish sohasi va uning tarkibini takomillashtirish;
- eksportning intellektual mulk ob'ektlari litsenziyalarini hamda nou-xau shaklida texnika va tijorat sirlarini sotish, injiniring va lizing sohalarida xizmatlar ko'rsatish kabi turini rivojlantirish yo'li bilan respublikamizda erishilgan fan-texnika yutuqlarining jahon xo'jaligi aylanmasiga kirib borishini tezlashtirish.
- ilmiy loyihalarga, xususan, amaliy fan va texnologiyalar transferti sohasidagi ilmiy loyihalarga bozor yo'nalishini berish uchun sharoitlar yaratish maqsadida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini ishlab chiqish;
- innovatsiya jarayonini davlat tomonidan va tijoriy qo'llab-quvvatlashning optimal uyg'unlashuvining asosiy yo'llarini belgilab olish hamda ilmiy-texnikaviy loyihalarni tijorat ahamiyatiga ega bo'lgan natijalar darajasigacha etkazish;
- o'zbek olimlari va mutaxassislarining chet eldag'i etakchi institutlar, tashkilot va firmalar bilan hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish;
- yuqori darajali marketing tadqiqotlari o'tkazish, tijoratlashtirish va texnologiyalar menejmenti sohasidagi yutuqlarni o'rganish, xorijiy bozorlarning kon'yunkturasi sig'imi, talabning mavjudligi hamda raqobatchilarning narx siyosati,

kooperatsiya, qo'shma korxonalar tashkil etish bo'yicha hamkorlar qidirish yuzasidan tahliliy ma'lumotlarni o'rganish zarur bo'ladi.

Hozirgi davr keng xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bilan bir qatorda chuqr ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolarni hal qilishni ham taqozo etadi. Bular ishsizlikni, jahon mamlakatlarda tez-tez ro'y berib turadigan ocharchilikni, turlituman yuqumli kasalliklarni va shuningdek, iqtisodiy qoloqliknii yo'q qilishdir. Butun dunyo jamoatchiligi diqqat markazida turgan bunday muammolar, dunyo mamlakatlarining o'zaro hamkorlik qilishini talab etmoqda va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining taraqqiy ettirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Globallashuv sharoitida milliy xo'jaliklarning umumjahon mehnat taqsimotida faol ishtirok etishi ularning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishining muhim shartiga aylanib bormoqda.

O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlariga kirib borishi, respublikamizning ham ichki, ham tashqi salohiyatni yanada yuksaltirmoqda. O'zbekistonning integratsiya tuzilmalaridagi ishtiroki tufayli uning ikki tomonlama va ko'p tomonlama xalqaro aloqalari kengayib borayotganligi, dunyo jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilmoqda.

Shunday ekan, integratsiya – O'zbekistonning dunyo xo'jaligi tizimiga kirib borishi uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli O'zbekistonning jahon xo'jaligiga qo'shilishi masalasi hozirgi kundagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Faqat shu yo'l bilangina jahon fan-texnika va iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga erishish mumkindir.

Globallashuvning davlatning investitsiya siyosatiga ta'siri.

Globallashuv davlatning investitsiya siyosatida jiddiy o'zgarishlarga olib kelib, bu yangi investitsiya siyosati avvalo, axborot texnologiyalari investitsiya bozori mexanizmlari va vositalarining integratsiyalashuvi uchun asosga aylanadi va yanada ishonchli axborot ta'minotini, xalqaro hamda davlatlararo miqyosda investitsion qarorlarni qat'iy me'yoriy-huquqiy tartibga solish, buxgalteriya hisoboti va garov mexanizmlari umumiy axborot standartlari joriy qilishni nazarda tutadi.

Globalashuv tendentsiyalari va voqeligi, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv tahlili hamda investitsiya bozorlarining rivojlanishini e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida investitsiyalardan foydalanish jarayonlarini va investitsiya siyosatini qayta ko'rib, ilmiy asoslangan taklif, tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun albatta, avval ushbu sohadagi amalga oshirilgan ishlarni chuqr o'rganib chiqish lozim.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, globallashuv sharoitida investitsiya siyosatini ishlab chiqishda bizningcha, quyida keltirilgan tendentsiyalarni hisobga olish lozim:

- dunyoning istalgan nuqtasida har bitta biznes hamda investitsiyalar ob'ekti xaqida tezkor va ishonchli axborot olish imkonini beradigan axborot bazasini kengaytirish;

- har qanday miqyosdagi axborotning ishonchlilagini qonunchilik asosida ta'minlash va bunday ta'minotni davlatlararo ko'p tomonlama bitimlar orkali muvofiqlashtirish;

- tovarlar, xizmatlar, moliya va investitsiya bozorida internet muhitida amalga oshiriladigan bitimlarni tashkiliy jihatdan ta'minlash va bunday bitimlar xavfsizligini ta'minlovchi jahon mamlakatlari xo'jalik-huquqiy elementlarini bir xillashtirish;

- biznesning moliya-bank bilan hamrohlik munosabatini axborot va virtual texnologiyalarga batamom o'tkazish. Globallashuv sharoitida investitsiya bozorining qonunchilik asoslari ham axborot texnologiyalari asosida tuzilishi va kelajakda bir-biriga to'g'ri keladigan, muvozanatlangan ko'p pog'onali tizimni ifodalashi lozim.

Bunday tizimni shakllantirish uchun quyidagilar talab qilinadi:

- mamlakatda qonunchilik va me'yoriy hujjatlar tizimi vertikal bo'yicha ham (xalqaro hujjatlar – mamlakatlar qonunchiliklari), gorizontal bo'yicha ham (boshqaruvning har bir ierarxiya pog'onasida qonunchilik va me'yoriy hujjatlarning etarli darajada bo'lishi va bir-birini takrorlamasligi) o'zaro bog'langan, muvofiqlashtirilgan bo'lishi, iqtisodiyot, ekologiya, madaniyat, ijtimoiy va mintaqaviy davlat siyosatlarini qamrab olishi;

- qonunchilik hujjatlari (birinchi navbatda, xalqaro qonun hujjatlari) investitsiya bozorlari, loyiha va dasturlari, ishlab chiqarish tizimlari hamda Investitsiyalar sohasida globallashuv fenomeni Globallashuvda investitsiya jarayonlarini universallashtirish Investitsion o'zaro aloqalar umumiyligi tamoyillarini ishlab chiqish va qabul qilish Milliy iqtisodiyotning asta- sekinlik bilan jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi Investitsion faoliyat sohasida xalqaro huquqning birinchi o'rinda turishiga erishish Investitsiya bozori sub'ektlariga xizmat ko'rsatishning umumiyligi me'yorlari va an'analariga amal qilish Investitsiya jarayonlari va hodisalarining o'zaro bir-biriga bog'liqligining o'sib borishini tan olish korxonalar, investorlar oldidagi majburiyatlarni bajarish, ularga turli imtiyozlar berish haqida axborot taqdim etishning ishonchlilagini ta'minlash;

- milliy investitsion qonunchilik tizimi investitsiya bozori sub'ektlarining xalqaro loyiha hamda dasturlarda ishtirok etish imkoniyatlarini amalga oshirish uchun xalqaro investitsion va moliyaviy institutlarning talablarini hisobga olishi lozim.

Bundan kelib chiqadiki, barqaror va oldindan aytib berish mumkin bo'lgan huquqiy maydon yaratish O'zbekiston investitsiya siyosatining asosiy omillaridan biriga aylanishi lozim. Buning uchun mavjud qonunlarni muvofiqlashtirish, istalgan mulkchilik shaklidagi kompaniyalar uchun bir xil umumiyligi o'zin qoidalarini belgilab beruvchi yangi qonunlar ishlab chiqish va qabul qilish talab qilinadi. Bunda xalqaro

shartnomalarga amalda rioya qilinishi va chet el arbitrajlari qarorlarining bajarilishini ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv davrida investitsiya jarayonlari uchun xos bo'lgan yuqorida sanab o'tilgan barcha tendentsiyalar mamlakatda investitsiya siyosatini ishlab chiqishga bevosita ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, agarda ro'y berayotgan globallashuv jarayonlari hisobga olinmaydigan bo'lsa, mamlakat iqtisodiyotini jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy qoidalaridan tashqarida rivojlantirish investitsiyalarni yo'qotish hamda iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish va modernizatsiyalash bo'yicha vazifalarning o'z vaqtida hal etilmasligiga olib keladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan bir sharoitida investitsion faoliyatni jadallashtirish asosan, mamlakatda qulay investitsion muhit yaratish yo'li bilan ta'minlanadi. Shu bois. hozirgi kunda O'zbekistonda qulay investitsion muhit, xorijiy investorlar uchun huquqiy imtiyozlar, qonunlarning keng tizimi yaratilgan bo'lib, O'zbekistonda mavjud investitsion qonunchilik MDH mamlakatlari qonunchilik tizimida eng ilg'or qonunchiliklardan biri hisoblanadi va u xalqaro investitsiyalar huquqining asosiy qoidalarini o'z ichiga olgan. Bundan tashqari, investitsion faoliyatni rivojlantirish uchun O'zbekistonda har yili mamlakat iqtisodiy tarkibini qayta qurish, modernizatsiyalash maqsadida, investitsion dasturlar yaratiladi va tasdiqlanadi. Ushbu dasturlarda iqtisodiyotning muhim tarmoqlari hamda ijtimoiy sohadagi yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish belgilanadi va asosiy e'tibor iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik qayta jihozlashga qaratiladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashning asosiy maqsadi bo'lib, bazaviy tarmoq korxonalarini rivojlanishi, ularning eksport salohiyatini oshishi, yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlarning ulushini oshirish imkoniyatini yaratish ko'zda tutilgan. Bu borada Davlat investitsion dasturining maqsadi esa, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish, iqtisodiyotning real sektoridagi qulay investitsiya muhitini yaxshilash va ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sarmoyalalar hajmining orttirishdan iborat. Investitsion dasturda ularni moliyalashtirish turli manbalardan amalga oshiriladigan loyihalar ajratib ko'rsatiladi. Shu bois, mamlakatimiz iqtisodiyotini investitsiyalash uchun birinchi navbatda, 2006 yilda tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Taraqqiyot va rivojlantirish fondining mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan investitsion loyihalar amalga oshiriladi. Jumladan, 2015 yilda ana shu maqsadlarga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 2014 yilga nisbatan 9,5 foiz oshib, 15 milliard 800 million AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb etildi. Kiritilgan jami investitsiyalarning 3 milliard 300

million AQSh dollaridan ziyodi yoki 21 foizdan ortig'i xorijiy investitsiyalar bo'lib, uning 73 foizi to'g'ridan- to'g'ri chet el investitsiyalaridir.

Investitsiyalarning 67,1 foizi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirildi. Bu esa o'z navbatida 2015 yilda mamlakat Investitsiya dasturida belgilangan umumiyligi qiymati 7 milliard 400 million AQSh dollari bo'lgan 158 ta yirik ishlab chiqarish ob'ekti qurilishini yakunlash va foydalanishga topshirish imkonini berdi. Har bir yilning investitsion dasturida chet el investitsiyalari va kreditlarini jalgilashga qilgan holda investitsiya loyihalarini amalga oshirishga katta e'tibor qaratiladi. Hozirgi paytda O'zbekistonda investitsiya qo'yilmalari shakli borasida amalda hech qanday cheklolar yo'q. Xorijiy investorlar respublika hududida davlat tomonidan yo'l qo'yiladigan istalgan mulkchilik shaklidagi jumladan, xorijiy investorlar qo'shma korxonalar, 100 % xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil qilishi, shuningdek, xususiy lashtirayotgan davlat korxonalarini aktsiyalar paketining bir qismi yoki to'liq aktsiyalar paketini xarid qilishi mumkin. Bu borada, xorijiy investorlarga, amalda qonunchilikka muvofiq adolatli, teng huquqli rejim, doimiy va to'liq xavfsizlik hamda himoya taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi xorijiy investorlarni himoyalash choralari va umumiyligi kafolatlar bilan bir qatorda qo'shimcha kafolatlar hamda himoya choralari ham, jumladan, hamkorlarning xorijiy investorlar oldidagi o'z majburiyatlarini so'zsiz bajarishini ta'minlaydigan choralar taqdim etilishi mumkin. To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini jalgiluvchi korxonalar asosiy faoliyat bo'yicha daromad solig'i, mulk solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni ko'kalamzorlash- tirish solig'i, ekologiya solig'i, mikrofirmalar hamda kichik korxonalar uchun umumiyligi (yagona) soliq, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi yo'l fondiga majburiy to'lovlar to'lashdan ozod etiladi. Bundan tashqari, bojxona bojlari bo'yicha va boshqa imtiyozlar ham ko'zda tutilgan.

Bularning barchasi shundan dalolat beradiki, O'zbekistonda xorijiy investorlar uchun jalgilashga etuvchan hisoblangan etarli darajada qulay investitsion muhit shakllantirilgan. Buni mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimov ham ta'kidlab o'tganlaridek: «Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarini amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalgilish borasida bajarilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiqlik».

Bu borada bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilishi bilan birga ayni vaqtida iqtisodchi olim va mutaxassislar zimmasiga katta mas'uliyat ham yuklaydi. Jumladan, yuqori salohiyatga ega bo'lgan har bir turdagini istiqbolli xomashyo va yarim fabrikat bo'yicha chuqur qayta ishslashning kelgusi yillarga mo'ljallangan aniq dasturiga ega bo'lish uchun mutlaqo yangi dasturiy kompleks yondashuvni talab etadi. Bu esa o'z

navbatida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda qilinadigan barcha chora tadbirlarni oldindan rejalashtirib olish hamda unga erishish uchun vazifalarni belgilab, izchillik bilan amalga oshirish lozimligini talab etadi.

Bunday investitsion loyihalarning barchasi O'zbekistonda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash ishlari doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yo'lida bormoqda. Jumladan, birgina 2014 yilda moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan 33 trln. 715,3 mlrd. so'm miqdoridagi investitsiyalar o'zlashtirilib, bu o'tgan yilga nisbatan 9,6 foizga ko'paygan. Investitsiyalarning umumiyligi hajmida markazlashmagan manbalar ulushi o'tgan yilgi 80 % o'rniga 79,9 %ni tashkil qildi. Kapital qo'yilmalarning YaIM dagi ulushi 23,3 foizni tashkil etdi.

2014 yilda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'z mablag'lari hisobidan investitsiyalar 10 trln. 401,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan 2013 yilga nisbatan 7,1 foizga oshgan bo'lsa, manbaning investitsiyalar umumiyligi hajmidagi ulushi 0,7 foizga pasayib, 30,9 foizni tashkil etdi. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining 2014 yil davomida iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlaridagi 15 ta investitsiya loyihasini birgalikda moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lari 439,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Bu esa o'z navbatida, jamg'arma mablag'lari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining avvalgi ajratilgan mablag'larni qo'shib hisoblaganda, 607,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi va 2013 yilga nisbatan 47 %ga ortdi.

Chet el investitsiyalari va kreditlari bo'yicha, xorijiy investorlarini jalb qilishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida, o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari 10,5 %ga o'sdi. Bir vaqtning o'zida, hukumat kafolati ostidagi chet el kreditlarining hajmi 639,9 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning mos ko'rsatkichidan 10,2 %ga ko'pdir.

Tijorat banklarining investitsiya maqsadlarida yo'naltirilgan kreditlari 13,8 %ga o'sib, 3843,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Kapital qo'yilmalarning umumiyligi tarkibida ichki kreditlar ulushi 2013 yildagi 11,0 foiz o'rniga 11,4 foizni tashkil etdi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarning mablag'lari o'tgan yilga nistabatan 9,9 %ga o'sib, 2200,8 mlrd. so'mni tashkil qildi va shu bilan birga, byudjetdan tashqari fondlarning umumiyligi o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 6,5 foizni tashkil qildi. Investitsiyaga yo'naltirilgan aholi mablag'lari 10,1 foizga o'sib, 7350,5 mlrd. so'mni (umumiyligi investitsiyalarning 21,8 foizi) tashkil etdi. Bu aholining yuqori investitsiya faolligidan dalolat bermoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotini jahon hamjamiatiga integratsiyalashuvini ta'minlash uchun avvalambor, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash muammosini hal etish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi sharoitda iqtisodiy siyosat bizning fikrimizcha,

ijtimoiy-iqtisodiy tizim ko'plab ishlab chiqarish sektorlarining rivojlanishiga ehtiyoj mavjudligidan kelib chiqishi lozim. Shu sababli tijorat banklarini, hattoki ayni paytda ular nisbatan past rentabellikni namoyish etayotgan bo'lsada, iqtisodiyotning va sanoatning ahamiyatga molik sektorlarini kreditlashga rag'batlantirish zarur.

Nazorat savollari

1. O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvi.
2. Globallashuvning davlatning investitsiya siyosatiga ta'siri.
3. Globallashuv sharoitida investitsiya siyosatini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. 16.01.2016 y
2. William Forsyth Sharpe. Portfolio Theory and Capital Markets. USA. McGraw-Hill. 2000. pp.123.
3. Markowitz H.M. Portfolio Selection: Efficient Diversification of Investments. New York: 2nd ed. Basil Blackwell, 1991. pp. 93.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI AMALIY MASHG'ULOT UCHUN TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulot maqsadi tinglovchilarning nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan. Mashg'ulotlar respublikamizdagi ilg'or korxona va tashkilotlarda o'tkaziladi hamda amaliy faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan amaliyotchilar bilan hamkorlikda o'tkaziladi. Mashg'ulot davomida tinglovchilar jahon iqtisodiyotiga ta'lqli bo'lgan ma'lumotlar yig'ishni tashkillashtirish va ularning sifatini baholash; kuzatishlar natijasida olingan ma'lumotlarni tizimlash va qayta ishslash; ma'lumotlarni qayta ishslash natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish amaliy ko'nikmalar hosil qiladilar.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot. Jahon iqtisodiyotining globallashuv xususiyatlari

Dars shakli baxs-munozara. Muhokama etiladigan masalalar:

1. Globallashuv jarayonining mazmun-mohiyati.
2. Globallashuv nazariyasi va global iqtisodiyot, uning asosiy xususiyatlari.
3. Globalizatsiya – iqtisodiy hodisa.

Kalit so'zlar: jahon iqtisodiyoti, globallashuv, baynalmilallashuv, global bozor, ochiq iqtisodiyot. Muhokama uchun savollar

1. Globallashuv jarayonining mazmun-mohiyati;
2. Globalashuvning asosiy xususiyatlari.

Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari

Globalizatsiyani iqtisodiyotga ta'siri qanday?

Foydalilanigan adabiyotlar

G.G.Nazarova, Z.M.Iminov, X.X.Xalilov, O.B.Xamidov. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. -T.: TDIU, 2011.

- 1.Klyukov L.N.Mirovaya ekonomika i ekonomiceskaya teoriya.M., 2014.
- Dumnaya G.M.Novaya ekonomiceskaya teoriya. M.,2013

2-amaliy mashg'ulot. Jahon xo'jaligining globalashuvi bosqichlari va rivojlanish tendentsiyalari

Muhokama etiladigan masalalar:

1. Jahon xo'jaligining taraqqiyot bosqichlari va tendentsiyalari.

Dars shakli: Debat usuli. Muhokama etiladigan masalalar va keys - stadi.

"Keys metodi" ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	yakka tartibdagi audio-vizual ish; keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); axborotni umumlashtirish; axborot tahlili; muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	individual va guruhda ishlash; muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'inining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	individual va guruhda ishlash; muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish; har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	yakka va guruhda ishlash; muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

❖ Muhokama uchun savollar

1. Jahon xo'jaligining taraqqiyot bosqichlari va tendentsiyalari.


2. TMKlar xalqaro kapital bozoridagi o'rni va ishtiroki.

3. Global hamkorlik va majburiyat tushunchasi va mohiyati.

Kalit so'zlar: transmilliy kompaniyalar, global hamkorlik, kapital bozori, iqtisodiy baynalmilallashuv.

TMKlar xalqaro kapital bozoridagi o'rni va ishtiroki ("Baliq skeleti" texnikasi orqali yoritib bering).





Foydalanilgan adabiyotlar

1. G.G.Nazarova, Z.M.Iminov, X.X.Xalilov, O.B.Xamidov. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. -T.: TDIU, 2011.
2. Krugman. Obstfeld.Melitz. International Economics. 2014, Prentice Hall.
3. James Gerber. International Economics. Fifth Edition. Pearson, 2012. - 471 pages.

3-amaliy mashg'ulot.

Globalashuv sharoitida investitsion faoliyat orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash

Muhokama etiladigan masalalar:

1. O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvi.
2. Globalashuvning davlatning investitsiya siyosatiga ta'siri.
3. Globalashuv sharoitida investitsiya siyosatini ishlab chiqish.

Dars shakli: Debat usuli.

❖ Muhokama uchun savollar

O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvi (grafik tashkil etuvchi – T-sxemadan foydalangan holda).

Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari

FSMU texnologiyasi yordamida “Globalashuvning davlatning investitsiya siyosatiga ta'siri qanday?”(savolini yo'naltiruvchi uslubiy tavsiyalar asosida echish).

Yo'naltiruvchi uslubiy tavsiyalar: resurslardan samarali foydalanish, xalqaro savdo, eksport, import va h.k.

Savol	“Globalashuvning davlatning investitsiya siyosatiga ta'siri”
-------	--

(F)-Fikringizni bayon eting	
(S)-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M)-Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring	
(U)-Fikringizni umumlashtiring	

ФСМУ технологияси қоидаси.

Ушбу технология мунозарали масалаларни хал этишда хамда ўқув жараёнини бахс-мунозарали ўтказишда қўлланилади, чунки бу технология талабаларни ўз фикрини химоя қилишга, эркин фикрлаш ва ўз фикрини бошқаларга ўтказишга, очиқ холда бахслашишга хамда шу билан бирга бахслашиш маданиятини ўратади. Тингловчиларга тарқатилган оддий қофозга ўз фикрларини аниқ ва қисқа холатда ифода этиб, тасдиқловчи далиллар ёки инкор интишарни баён этишга ёрдам беради.

Ф – фикрингизни баён этинг

С – фикрингиз баёнига сабаб кўрсатинг

Foydalanilgan adabiyotlar

Howard Richards. Understanding the Global Economy. Peace Education Books, 2014. - 311 pages.

Chebotarev N.F. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Uchebnik dlya bakalavrov / N.F.Chebotarev..- M.:Dashkov i K, 2013.- 352 s.

A.A.Isadjanov. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi. T.: JIDU, 2008, 36-57 b.

4-amaliy mashg'ulot.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi muammolarini va ularni hal etish yo'llari
Muhokama etiladigan masalalar:

1. Globallashuv afzalliliklari.

2. Globalashuv oqibatlari.

3. Global qo'shilgan qiymat zanjirining uzilishi va jahon iqtisodiyoti krizisining chuqurlashuvi.

Kalit so'zlar: global qo'shilgan qiymat zanjiri, jahon iqtisodiyoti krizisi.

V. KEYSALAR BANKI

Philips kompaniyasi maishiy texnika ishlab chiqarish zavodlarini sotmoqda

Philips electronics kompaniyasi maishiy texnika ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan bir nechta zavodlarini sotishni muljallamokda. Bundan tashqari Philips videomagnitofonlarini ishlab chiqarish xukuki Yaponiyaning Funai Elesris korporatsiyasiga beriladi. Gollandiya kompaniyasining bu qarori raqamli videodisklar ishlab chiqarish kabi video yozish soxasining juda mukammal rivojlanib ketishi bilan izoxlanadi. Philips ning maishiy bo'lim mudiri Gi Demeynkning fikriga ko'ra Funai Elesris bilan xamkorlik kompaniyaga dunyoda etakchi o'rnlardan birini saqlab qolishida qo'l keladi. Agar avval Yaponiyada Philips markasi bilan ishlab chiqarilgan videomagnitofonlar AQSh uchun sotilgan bo'lsa, endi bu maxsulot Evropa bozorini xam to'ldirishi ko'zda tutilgan.

Iyun oyida Gollandiya kompaniyasi raxbariyati foyda keltirmayotganligi sababli mobil telefonlar ishlab chiqarish xuquqini Xitoydagi qo'shma korxonaga berilishini e'lon kildi. Xarajatlarni qisqartirishga yo'naltirilgan restruktrizatsiya rejasi o'z ichiga ommaviy ravishda xodimlar shtatlarini qisqartirishni xam o'z ichiga oladi. Oldin 10 ming ta xodimni ishdan bo'shatish rejalashtirilgan edi. Restruktrizatsiya avvalo maishiy texnika soxasidagi xodimlarga qaratiladi. Taxlilchilar fikriga ko'ra, kompaniyani boshqarish kursi va yo'nalishi oldindan aytish mumkin, chunki Philips kompaniyasi maishiy texnikaning yangi turlarini ishlab chiqarishga xarakat qilmokda.

Topshiriqlar

1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning kaysi turi to'g'risida gap ketmoqda? Kim uning sub'ekti xisoblanadi?
2. Ushbu xolatni xalqaro savdoning kaysi nazariyasi to'laroq va anikroq eritadi?

Germaniya immigrantlar uchun o'z eshiklarini kengroq ochishga xarakat qilmoqda

Berlinda yaqinda hukumat komissiyasining qarori e'lon qilindi, unga ko'ra Germaniya davlati xar yili 50 mingga yakin immigrantlarni qabul qilishi lozim, aks xolda ishchi kuchi etishmasligi og'ir muammoga aylanishi mumkin. Ekspertlar komissiyasi mamlakatga chet elliklar kelishi borasidagi muammolarni o'rganib chiqdi. Bundan chiqarilgan asosiy xulosa shundan iborat bo'ldiki, yosh va malakali mutaxassislar Germaniyaga kelmaydigan bo'lsa, tug'ilish keskin sur'atlar bilan kamayib borayotgan bu paytda iqtisodiy taraqqiyot va yuqori xayot tarzi kabi orzular xom xayolligicha qolib ketaverishi mumkin.

Buning uchun Germaniyaga asosan uch turdag'i immigrantlarni jalb qilish kerak bo'ladi. Nisbatan yosh va 45 yoshgacha bo'lgan malakali 20 mingta chet ellik

mutaxassislar Germaniyada chegaralanmagan muddatda yashash va shu erda ishlash xukukini qo'lga kiritadilar. Buning uchun nomzodlarni balli sistema yordamida sinovdan o'tkaziladi. Nozodlar qanchalik yosh, malakali va tajribali bulsa ularga shunchalik ko'p ball qo'yiladi. Chet tillarini, xususan nemis tilini bilish va farzandlarning borligi Germaniyaga borish imkoniyatini yanada oshiradi. Ikkinchи kategoriyada xam 20 mingta nomzodlar saralanib olinadi. Bunga hozirgi vaqtда Germaniyada juda kamyob mutaxassislik egalari kiritiladi. Ular Germaniyada vaqtinchalik yashash va ishlash xuquqini qo'lga kiritishadi. Immigrantlarning uchinchi kategoriyasida maktablarning bitiruvchilarini jalb qilish nazarda tutilgan. Ular Germaniyada professional texnik ma'lumot olishlari mukin va xoxishiga ko'ra Germaniyada doimiy qolishlari mumkin. Shu bilan birga chet ellik olimlarning Germaniyaga kelishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish ko'zda tutilgan.

Davlat tomonidan beriladigan yordamga chet eldan kelib Germaniyada uz ishini ochmoqchi bo'lganlar ishonishlari mumkin. Bu masalan, kimeviy tozalash korxonasi, avtoustaxona yoki restoran va xatto bank xam bo'lishi mukin. Asosiysi soliqlarni o'z vaqtida tulashdir.

Topshiriqlar

1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning qaysi turi to'g'risida gap ketmoqda? Va qaysi muammoni xal qilish lozim?
2. Immgratsiyaning qaysi ko'rinishlari haqida to'xtab o'tildi?
3. Germaniya immigratsion siesatning qaysi instrumentlarini ishlasmokda?
4. Germaniya immigrantlarini qabul qilib qaysi imkoniyatlarga ega bo'ladi?

VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

1) Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni.

Mustaqil ish – mavjud matn yoki bir qancha matnlarni izohlovchi shakllaridan biri sanaladi. Shu boisdan, konspektdan farqli o'laroq, mustaqil ish yangi, muallif matn sanaladi. Ushbu holatda yangilik, yangicha taqdim etish, materiallarni tartiblashtirish, har xil nuqtai nazarlarni o'zaro solishtirishda alohida mualliflik yondashuvi tushuniladi.

Mustaqil ish - har xil nuqtai nazarlarni o'zaro solishtirish va tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lismeni talab etadigan bir yoki bir qancha manbalarni o'zida mujassam etadigan g'oyalarni qisqacha yozma ko'rinishidagi taqdimotidir.

Mustaqil ishning turlari va tizimi:

1. Ifodalanish to'liqligicha ko'ra:

- a) informativ (referatlar – konseptlar);
- b) indikativ (referatlar – rezyume (qisqacha mazmun)

2. Mustaqil ish tarkibi:

A) bibliografik qayd etilishi:

- F.I.Sh.ning nomi;
- chop etilgan manzili;
- nashriyot, yil;
- sahifalar soni.

B) Mustaqil ish matni:

- mavzu, muammo, mustaqil ish qilinadigan ish predmeti, maqsadi va mazmuni;
- tadqiqot usullari;
- aniq natijalari;
- muallif xulosasi;
- ish natijalarini qo'lannish sohasi.

O'quv fani bo'yicha mustaqil ish tayyorlash quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

O'quv predmeti dolzarb nazariy masalalari bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish, talaba tomonidan mavzuga ushbu olingen nazariy bilimlarni ijodiy ko'nikmasini hosil qilish;

Tanlangan kasbiy sohada xorij tajribalarini, mavjud sharoitlarda ularni amaliy jihatdan qo'llash imkoniyatlari va muammolarini o'zlashtirish;

Tanlangan mavzu bo'yicha har xil adabiy manbalarni (monografiya, davriy nashrlardagi ilmiy maqolalar va shu kabilar) o'rganish qobiliyatini takomillashtirish va ular natijalari asosida tanqidiy yondashgan tarzda mustaqil, hamda bilimdon holda materialni ifoda etish, ishonchli xulosa va takliflar qilish;

Yozma ko'inishdagi ishlarni to'g'ri rasmiylashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishdir.

"Jahon iqtisodiyotining globallashuvi" modulidan mustaqil ta'limni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi: ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida o'zlashtirish; amaliy mashg'ulotlar uchun topshirilgan mavzuni axborot resurs manbalaridan foydalangan, rasmiy statistika ma'lumotlarini to'plagan holda bajarish.

Tinglovchi mustaqil ishni tashkil etishining mazmuni "Jahon iqtisodiyotining globallashuvi" modulining xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagilarga asoslanib tayyorlanishi tavsiya etiladi:

- me'yoriy xujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rghanish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modul bo'limlari va mavzularni chuqur o'rghanish.

2) Mustaqil ta'lim mavzulari.

"Jahon iqtisodiyotining globallashuvi" modulidan mustaqil ta'lim sifatida o'rjaniladigan quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishi ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni (PF-4848. 05.10.2016 y.) da tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash masalalari.

3. Prezident Sh.Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи ma'ruzasida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni (7 fevral 2017 y.) maqsadi va vazifalari.

5. Jahon iqtisodiyotda Yangi industrial davlatlarning tutgan o'rni.

6. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlarning iqtisodiy rivojlanish modellari.

7. Jahon xo'jaligida iqtisodiy xavfsizlik muammolari.
8. Jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalarning tutgan o'rni.
9. Jahon xo'jaligida iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanish muammolari.
10. Erkin iqtisodiy hududlar va ularni tashkil etish muammolari.
11. Xalqaro raqobat va uning zamonaviy sharoitda yuzaga chiqish xususiyatlari.
12. Zamonaviy jahon xo'jaligi sub'ektlari va mamlakatning jahon iqtisodiyotdagi o'rnini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi.
13. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mazmuni va mohiyati.
14. Xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlik.
15. Jalon iqtisodiyotida oziq-ovqat muammosi.
16. Germaniya Federativ Respublikasi iqtisodiyoti.
17. Fransiya Respublikasi iqtisodiyoti.
18. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qiralligi iqtisodiyoti.
19. Italiya Respublikasi iqtisodiyoti va jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy munosabatlari.
20. Yaponiya iqtisodiyoti.

VII. GLOSSARIY

“Brain drain”	Utechka mozgov	“Aqli kishilarning ketib qolishi”	- mamlakatning intellektual salohiyatlari vakillarini chet elda ishga joylashish maqsadida chiqib ketishi.
Stock	Aktsiya	Aksiya	– qimmatbaho qog‘oz, u hissadorlik jamiyatini rivojlantirishga mablag‘ sarflanganligi dalolati bo‘lib, uning egasiga hissadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividend tariqasida olish huquqini beradi.
Association	Assotsiatsiya	Assotsiatsiya	– xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ixtiyoriy birlashmasi.
Employment	Zanyatost	Bandlik	– mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan va qonunga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.
Bancrupt	Bankrot	Bankrot	-xo‘jalik sudi tomonidan e’tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kruditorlar talablarini to’la xajmda qondirishga yoki majburiy to’lovlar bo‘yicha o‘z majburiyatini bajarishga qodir emasligi.

The requirements of the Basel Committee	Trebovaniya Bazelskogo komiteta	Bazel qo'mitasi talablari	– bank tizimining barqaror amal qilishi hamda o'z majburiyatlarini bajara olishini ta'minlash uchun o'rnatilgan xalqaro me'yorlar majmui bo'lib, u kapitalning etarlilik darajasini, banklarni nazorat qilish jarayoniga hamda bozor intizomiga qo'yilgan talablarni ifodalaydi.
The Customs Union	tamojenniy soyuz	Bojaxona ittifoqi	- ikki va undan ortiq davlatlarning bir-biriga va uchinchi mamlakatlarga nisbatan soddalashtirilgan tarif siyosatini o'tkazishidir.
customs tariff	tamojenniy tarif	Bojaxona tarifi	- tovar oqimlarining chegarani kesib o'tishida davlat tomonidan olinadigan soliq miqdori ko'rsatilgan tartiblangan tovarlar ro'yxati
The market	Rinok	Bozor	– sotuvchilar va xaridorlar o'rtasidagi mahsulot sotish va xarid qilish bo'yicha erkin munosabatlar tizimi. Bozorlar o'z hududiy masshtabiga ko'ra lokal, milliy va xalqaro bozorlarga bo'linadi. Oldi-sotdi ob'ekti bo'lib, iste'mol tovarlari, resurslar, (mehnat, kapital, yer, tadbirdorlik qobiliyati, axborot) va xizmatlar hisoblanadi.
budget deficit	byudjetniy defitsit	Byudjet defitsiti	– byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan oshib ketishi natijasida vujudga kelgan taqchillik.

The income	Doxod	Daromad	<ul style="list-style-type: none"> – tadbirkorlik yoki boshqa faoliyat natijasida pul yoki natura shaklida olinadigan mablag‘lar.
State budget	gosbyudjet	Davlat byudjeti	<ul style="list-style-type: none"> - davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasি.
deflation	deflyatsiya	Deflyatsiya	<ul style="list-style-type: none"> – inflyastiya davrida muomaladagi qog’oz pulni kamaytirish. Davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul - kredit tadbirlarini qo’llash orqali amalga oshiriladi.
The demographic explosion	Demografiche skiy vzriv	Demografik portlash	<ul style="list-style-type: none"> - jahoning kam rivojlangan va kambagal mamlakatlarida nazorat kilib bo’lmaydigan darajada aholi sonining o’sishi.
diversify	diversifitsirovat	Diversifikatsiya	<ul style="list-style-type: none"> – (lotinchadan diversus-har xil va facere-qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko’paytirish.
The dividend	Dividend	Dividend	<ul style="list-style-type: none"> – hissadorlik jamiyati foydasining (soliqlar to‘lanib, barcha qarz beruvchilar bilan hisob-kitob qilinganidan keyingi) hissadorlar o‘rtasida ular qo‘lidagi aktsiyalarga

			mutanosib tarzda taqsimlanadigan qismi.
The export quota	eksportnaya kvota	Eksport kvotasi	- mamlakat eksporti hiymatining unig yalpi ichki mahsuloti (YaIM)ga nisbati (foizlarda).
embargo	embargo	embargo	- alohida mamlakat yoki davlatlar guruhi bilan savdoni butunlay ta'qiqlash.
free trade zone	Zona svobodnoy torgovli	Erkin iqtisodiy hudud	-mamlakat hududining xorijiy mamlakatlar tomonidan turli shakllardagi hamkorlikdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun ruxsat etilgan qismi. Mazkur zonalarda maxsus imtiyozli shart-sharoitlar, jumladan, imtiyozli soliqlar, bojxona to'lovlari, ijara, viza olish, valyuta ayirboshlash, mehnatga yollashning qulay tartiblari belgilangan bo'ladi.
Stock market	fondoviy rinok	Fond bozori	- qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy vositalarning oldi-sotdi jarayonlari amalga oshiriluvchi maxsus tashkillashtirilgan bozor.
franchising	franchayzing	Franchayzing	- bir kompaniyaning boshqa yirikroq yoki bosh kompaniyaning savdo markasi, tovar belgisi va boshqa atributlaridan foydalanish.
GATT	GATT	GATT	-Savdo va tariflar bo'yicha Bosh kelishuv - tashqi savdo operastiylarini o'tkazishda belgilangan tamoyillarga amal qilishga rozi bo'lgan

			mamlakatlarni birlashtiruvchi savdo va tarif masalalari bo'yicha xalqaro akTayvan
immigration quota	immigratsionna yaya kvota	Immigratsion kvota	xorijiy fuqarolarning kirib kelishini davlat tomonidan miqdoriy cheklash.
The inflation rate	Uroven inflyatsii	Inflyatsiya darjasasi	– ma'lum vaqt ichida (oy, yil) narxlar darajasining foizdagi o'zgarishi.
innovative technologies	innovatsionnie texnologii	Innovatsion texnologiyalar	– iqtisodiyotga yangiliklarni tatbiq etish bosqichlarida qo'llaniluvchi usul va vositalar majmui bo'lib, o'z ichiga joriy etish, trening, konsalting, transfert, audit, injiniring kabi turlarini oladi.
investment credit	investitsionniy kredit	Investitsion kreditlar	– ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizastiyalash va rekonstruksiya qilish, yangi bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo'lgan vositalar hamda qimmatli qog'ozlarni sotib olish maqsadida olingan uzoq muddatli kreditlar.
The investment	Investitsiya	Investitsiya	– bu iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobjiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (akstiya, obligastiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, listenziyalar va samara

			beradigan boshqa har qanday boyliklardir.
investitsionniy klimat	investitsionniy klimat	Investitsiya muhiti	- investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmui.
investor	investor	investor	- xususiy va qarzga olingan mulkiy va intellektual qiymatlarni sarflash haqida qaror qabul qiluvchi investitsiya faoliyati sub'ektlari. Investorlar ob'ektlar va investitsiya natijalariga egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish huquqiga ega bo'ladi.
Economic activity	Ekonomicheskaya deyatelnost	Iqtisodiy faoliyat	- cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga etkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog'liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlar majmui.
economic integration	ekonomicheskaya integratsiya	iqtisodiy integratsiya	- hududiy miqyosda sifat jihatdan yangi iqtisodiy muhitni yaratish yo'li orqali milliy xo'jalik komplekslarini o'zaro yaqinlash va bir-biriga kirib borishi jarayoni.
economic alliance	ekonomicheskiy soyuz	iqtisodiy ittifoq	- iqtisodiy integratsiyaning oliv ko'rinishi, u umumiyluq huquqiy me'yorlar, soliq bazasini

			soddalashtirilishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda yagona standartlarni joriy etish, yagona valyutaga o'tish kabilar bilan tavsiflanadi.
Economic growth	Ekonomichesk iy rost	Iqtisodiy o'sish	– mamlakat miqyosida yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga yildan-yilga barqaror o'sib borish jarayoni.
Economic resources	Ekonomichesk ie resursi	Iqtisodiy resurslar	– tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida foydalanish mumkin bo'lgan barcha vosita va imkoniyatlar majmui.
Economy	Ekonomika	Iqtisodiyot	– mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo'jaliklardan, xo'jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konsernlar, qo'shma korxonalar, moliya va bank tizimlaridan, davlatlar o'rtaсидаги turli iqtisodiy munosabatlardan iborat o'ta murakkab ijtimoiy tizim.
Manufacture	Proizvodstvo	Ishlab chiqarish	– biznes korxonalarining asosiy faoliyat turi bo'lib, bu jarayon cheklangan resurslardan foydalangan holda amalga oshiriladi.
The World Bank	Vsemirniy bank	Jahon banki	– 1944 yilda Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan bir vaqtda tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya institutidir. Bank o'zining faoliyatini 1946 yil 25 iyundan boshlagan.

World market	mirovoy rinok	Jahon bozori	- moddiylashtirilgan va moddiylashtirilmagan ko'rinishidagi ijtimoiy mahsulotni ishlab chikarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol boskichlarni o'z ichiga oluvchi XIM sub'ektlari (milliy va hududiy iqtisodiyotlar, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar)ning o'zaro iqtisodiy ta'sirlashish global muhitidir.
World market conditions	Kon'yunktura mirovogo rinka	Jahon bozori kon'yunkturas i	-jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o'zgarish tendensiyalari.
World Market Workers Labor	Mirovie rinok rabochie truda	Jahon ishchi kuchi bozori	- milliy xo'jalik tizimlari va jahon iqtisodiyoti doirasida ishlab chiqaruvchi kuchlarning darajasi, tabiatи va joylashuviga sezilarli ta'sir etuvchi iqtisodiy faol aholining mamlakatlar va hududlar o'rtasida jami migraстion aylanmasi.
The World Trade Organization	Vsemirnaya torgovaya organizatsiya	Butunjahon savdo tashkiloti	- xalqaro savdoni institustional va xuquqiy asosini tashkil etuvchi mustaqil davlatlararo tashkiloTayvan
cartel	kartel	kartel	- tashqi savdo assostiasiysi (uning a'zolari alohida tovar guruhlari bo'yicha ishlab chiqarish va narx siyosatini muvofiqlashtirib olishadi).
Group of twenty	Bolshaya dvadtsatka	Katta yigirmatalik	– 20 ta yirik mamlakatlar guruhi bo'lib, unga jahondagi

			eng boy mamlakatlar va yirik rivojlanayotgan davlatlar kiradi va ular xissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 90 foiz ulushi to'g'ri keladi.
Conuncture	Kon'yunktura	Kon'yunktura	– bozor mexanizmi sharoitlarida rivojlanishning qonuniyatli shakllari davlat tomonidan tartibga solinishi va raqobatning, iste'molchilar, korporatsiyalar hamda davlat muassasalari va korxonalari tomonidan qaror qabul qilishdagi mutaqillikning muvozanati bilan belgilanuvchi jarayonlar: muayyan iqtisodiy faoliyat omillari va shart-sharoitlari yig'indisi.
Concern	Kontsern	Kontsern	– ma'lum bir turdag'i vazifalarni bajarish uchun vaqtincha tuzilgan ilmiy-texnikaviy, investitsion tarkibiy, moliyaviy va tashqi iqtisodiy siyosatni hamda tegishli resurslarni markazlashtiruvchi korxonalar birlashmasi.
Cooperative ties	Kooperativnie svyazi	Kooperatsiya aloqalari	– turli soha ishlab chiqarish tarmoqlarida ma'lum mahsulotni tayyorlash bo'yicha uzoq muddatli aloqalarni o'rnatish.
Corporation	Korporatsiya	Korporatsiya	– hissadorlik jamiyati yoki hissadorlik birlashmasi ko'rinishidagi huquqiy shaxs shakli. U chiqarilgan aktsiyalar qiymati bilan cheklangan

			majburiyatlar bo'yicha mas'uliyatli bo'ladi, o'z nomidan tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlarni bajarish, kontraktlar tuzish, qarz olish yoki berish, boshqa har qanday fuqarolik harakatlarini amalga oshirish huquqiga ega.
The credit	Kredit	Kredit	– qarz mablag'inining harakat shakli. Qaytarish va to'lov (foizni to'lash) shartlari bilan beriladigan pul yoki tovar shaklidagi qarz kredit beruvchi bilan qarz oluvchining iqtisodiy munosabatlarini ifodalaydi. Kreditning tijorat, davlat, bank, iste'mol, xalqaro shakllari mavjud.
labor market	rinok truda	Mehnat bozori	-mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo'lgan va band bo'lмагan qismlari va ish beruvchilar o'rtaсидagi munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi shartnomalar asosida ishchi kuchi xarid qilish - sotishni amalga oshiruvchi, shuningdek, unga bo'lgan talab va taklif o'rtaсидagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, ko'p aspektli, o'suvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasidir.

modernization	modernizatsiya	Modernizatsiya	-ob'ektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me'yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko'rsatkichlariga moslashtirish.
The financial market	Finansoviy rinok	Moliya bozori	– moliya mablag'larini vaqtincha haq to'lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan bo'lgan munosabatlardir.
Financial and banking system	Finansovaya i bankovskaya sistema	Moliya-bank tizimi	-tarixan shakllangan va belgilangan qonun qoidalar asosida faoliyati yurituvchi mamlakatdagi moliya-kredit muassasalari majmuidir.
preferences	Predpochteniya	Preferensiya	– iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.
protectionism	protektsionizm	Proteksionizm	– davlatning xorij raqobatidan ichki bozorni himoya qilish siyosati, mamalakatga olib kelinayotgan tovarlarga yuqori bojlar belgilaydi, ayrim tovarlarni olib kelish cheklanadi yoki umuman taqiqlanadi.
Monetary and Credit Policy	Denejno-kreditnaya politika	Pul - kredit siyosati	– davlat tomonidan iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta'minlash uchun amalgalash.

			oshiriladigan barcha chora-tadbirlar majmui.
external debt	vneshniy dolg	Tashqi qarz	– mamlakat hukumati, moliya-kredit tashkilotlari, yirik korxonalarining boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag'larining jami hajmi.
Foreign trade	vneshnetorgoviy	Tashqi savdo	– bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi.
Foreign Trade Policy	Politika vneshney torgovli	Tashqi savdo siyosati	– bir mamlakatni boshqa mamlakatlar bilan olib borayotgan savdosi (eksporti va importi) borasidagi siyosati.
Technology	Texnologiya	Texnologiya	– tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risidagi amaliy bilimlar.
Direct investments	Pryamie investitsii	To‘g’ridan-to‘g’ri investitsiyalar	- foyda olish bilan birgalikda kapital ko‘yilayotgan ob’ekt ustidan nazoratni ta’minlash xuquqini beruvchi kapital qo‘yilmalari.
balance of payment	Platejnyi balans	To‘lov balansi	-muayyan muddat davomida mamlakatning xorijiy davlatlarga to’lagan va xuddi shu davr mobaynida mamlakatga xorijiy davlatlardan tushgan to’lovlar summalari nisbatini tavsiflaydi. To‘lov turkumiga tashqi qarz, uning foizi, chetdan olingan tovarlar va xizmatlar haqi, xorijiy investitsiyalar, xorijda diplomatik ishlarni, iqtisodiy aloqalarni yuritish xarajatlari,

			fuqarolar va qo'shma korxonalarining chet elga pul o'tkazmalari va boshqalar kiradi.
The total market	obshchiy rinok	Umumiy bozor	- ishlab chiqarish omillarini milliy chegaralar orqali erkin ko'chib o'tishi ta'minlanadigan iqtisodiy integratsiya ko'rinishi.
currency	valyuta	Valyuta	- ma'lum bir davlatning qonun bilan o'rnatilgan pul vositasi (milliy valyuta), bir yoki bir necha etakchi mamlakatlarning valyutasi ko'rinishidagi jahon rezerv pullari
International cooperation	mejdunarodno e kooperatsiya	Xalqaro kooperatsiyasi	- ishlab chiqarish bosqichlarining o'zaro bir-birini to'ldirishi va ularni muvofiqlashtirish maqsadida milliy iqtisodiy komplekslarning xamkorlik qilishi.
International Economic Relations	Mejdunarodni e ekonomicheskie otnosheniya	Xalqaro iqtisodiy munosabatlar	-mamlakatlar va hududlar o'rtasidagi, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar ishtirokidagi xo'jalik aloqalari tizimi.
international organizations	mejdunarodni e organizatsii	Xalqaro tashkilotlar	-ularning har biri xalqaro siyosatda o'zlarining faoliyat maqsadlari yo'nalishlariga qarab, yer yuzi taraqqiyotida egallab turgan mavqelariga qarab, umuman xalqaro siyosiy-amaliy munosabatlar jarayonida harakatlarga kirishadigan boshqa xalqaro tashkilotlar tizimidagi

			maqomlariga qarab ahamiyat kasb etadilar.
international transit	mejdunarodniy tranzit	Xalqaro tranzit	-xorijiy yuklarni jo'natish va qabul qilib olish punktlari berilgan mamlakat hududidan tashqarida bo'lishi shartida tashilishidir. Agar tovarlar bojxona omboriga joylashtirilmasdan tashilsa bevosita xalqaro tranzit, bojxona omboridan foydalanilsa – bilvosita xalqaro tranzit hisoblanadi.
International Monetary Fund (IMF)	Mejdunarodniy valyutniy fond (MVF)	Xalqaro valyuta jamg'armasi	– xalqaro savdo va valyuta hamkorligini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatish maqsadida 1944 yilda tashkil etilgan xalqaro valyuta-moliya tashkiloti. Xalqaro valyuta jamg'aramasi – a'zo davlatlar o'rtasida valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solib turish va ularga to'lov balansining kamomadi bilan bog'liq valyutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valyutasida qisqa va uzoq muddatli kreditlar berish yo'li bilan moliyaviy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan hukumatlararo tashkiloTayvan
Service sector	sektor uslug	Xizmat ko'rsatish sohasi	– ijtimoiy ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan ko'rinishga ega bo'limgan iste'mol qiyamatlarini yaratishga yo'naltirilgan sohalari. U o'z

			ichiga moddiy xizmatlar ko'rsatish (transport, aloqa, savdo, maishiy xizmat va boshqalar) hamda nomoddiy xizmatlar ko'rsatish (huquqiy maslahatlar berish, o'qitish, malaka oshirish va boshqalar)ni oladi.
Gross domestic product	Valovoy vnutrenniy produkt	Yalpi ichki mahsulot	-mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor qiymati
New industrial countries	Novie industrialnie strani	Yangi industrial mamlakatlar	- iqtisodiy jixatdan eng tez rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi davlatlar guruhi.

VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.

Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.

Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.

Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.

Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 dekabr “2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida”gi O'RQ-589-sonli Qonuni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta'lim muosasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-4732-sonli Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 avgust “O'zbekiston Respublikasida investitsiya muxitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5495-sonli Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabr PQ-4022-sonli “Raqamlı iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamlı infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may "O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-tonli Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun "2019-2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4358-tonli Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 iyun "Soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5755-tonli Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-tonli Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-tonli Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabr "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-tonli Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabr "2019 – 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-tonli Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 9 yanvar "O'zbekiston Respublikasining 2020-2022 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4563 -tonli Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-tonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

Bondarev A.K. Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya: Uchebnik/ A.I.Evdokimov, A.K.Bondarev, S.M.Drozdov; Pod red. A.I.Evdokimov. – M.: Prospekt, 2013, 656 s.

Vaxabov A.V., Tadjibaeva D.A., Xadjibakiev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: Darslik. – T.: Baktria, 2015. – 584 b.

Gulyamov S.S., Ayupov R.H., Abdullaev O.M., Baltabaeva G.R.. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2019, 447 bet.

Mejdunarodnie valyutno-kreditnie otnosheniya: Uchebnik dlya vuzov /Pod red.L.N.Krasavinoy. – 4-e izd., pererab. i dop. – M.: Izdatelstvo Yurayt, 2014. – 543 s.

Moroz I.I. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya (dlya bakalavrov) / I.I.Moroz. – M.: KnoRus, 2013. – 256 s.

Ponomareva E.S. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Uchebnoe posobie/E.S.Ponomareva, L.A.Kriventsova. – M.: YuNITI, 2013. - 287 s.

Radjabova Z.K. Mirovaya ekonomika: Uchebnik / Z.K. Radjabova. - 3-e izd., pererab. i dop. – M.: INFRA-M, 2010. – 304 s. – EBS: <http://znanium.com/> Kudrov V. M. Mirovaya ekonomika: Ucheb. posobie / V.M. Kudrov. – M.: Magistr: NITs INFRA-M, 2013. – 416 s. – EBS: <http://znanium.com/>

Tuxliev N. Osiyo taraqqiyot modeli. T.: O’zbekiston, 2015. –176 b.

Tuxliev N. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya: rivojlanish qonuniyatları, xususiyatlari. – T.: Ilm-Ziyo-Zakovat, 2020. – 116 b.

Tuxliev N. O’zbekiston iqtisodiyoti anatomiyasi. – T.: Ilm-Ziyo-Zakovat, 2019. – 404 b.

Chebotarev N.F. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Uchebnik dlya bakalavrov / N.F.Chebotarev..- M.:Dashkov i K, 2013. – 352 s.

Ekonomika stran blijnego zarubejya: Ucheb.posobie / Mos. Gos. i-t mejdunar. otnosheniy (un-t) MID Rossii; Pod red. A.S.Bulatova - M.: Magistr: INFRA-M, 2011. - 352 s.- EBS : <http://znanium.com/>

David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.

English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.

Global Financial Markets./7 the edition. Stephen Valdez & Philip Molyneux. Palgrave McMillan, 2013. 537r.

Greg Ip. The Little Book of Economics: How the Economy Works in the Real World. John Wiley & Sons, 2012. - 288 pages.

H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.

H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.

Howard Richards. Understanding the Global Economy. Peace Education Books, 2014. - 311 pages.

James Gerber. International Economics. Fifth Edition. Pearson, 2012. - 471 pages.
Krugman. Obstfeld. Melitz. International Economics. 2014, Prentice Hall.
Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
Me Connell, Brue. Economics. 17th edition. McGraw-hill/Irwin, USA, 2014.
N. Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th edition. Amazon, USA 2016.
Paul A. Samuelson, William D. Nordhaus. Economics. 19th Edition. McGraw-Hill Companies. USA. 2015.
Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.

IV. Internet saytlar

www.gov.uz — O’zbekiston Respublikasi hukumat portali.
www.lex.uz - O’zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
www.uza.uz — O’zbekiston Milliy Axborot agentligi
www.ifmr.uz - Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti.
www.ziyonet.uz - Ziyonet ta’lim portali.
www.economics.ru — “Ekonomicheskaya gazeta” gazetasining rasmiy sayti.
<https://openedu.ru/> Otkritoe obrazovanie.
www.ZiyoNet.uz – axborot ta’lim tarmog’i.
www.bimm.uz- Bosh ilmiy-metodik markaz.